

M. XOLIQOVA, SH. ERGASHEVA

# ODOBNOMA

## 4

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining  
4-sinfi uchun darslik

*Tuzatilgan va toʻldirilgan toʻrtinchi nashr*

*Oʻzbekiston Respublikasi  
Xalq taʼlimi vazirligi tasdiqlagan*

TOSHKENT  
«YANGIYOʻL POLIGRAF SERVIS»  
2017

UO'K: 17=512.133(075.2)

KBK: 74.200.51

X 72

Xoliqova, Mohira

**Odobnoma 4-sinf:** umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / M. Xoliqova, Sh. Ergasheva. - Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchi nashr. - Toshkent.: «Yangiyo'l poligraf servis», 2017. - 96 b.

UO'K: 17=512.133(075.2)

ISBN 978-9943-382-83-1

KBK: 74.200.51ya72

**Taqrizchilar** – **S. Olimov**, filologiya fanlari nomzodi.

**Sh. Rizayev**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**Sh. Egamberdiyeva**, Koson tumani 95-ixtisoslash-tirilgan maktab direktori.

**M. Rahimova**, boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

### Shartli belgilar:



«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridan olingan fikrlar



Hikmatlar va hadislar



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalari



Savol va topshiriqlar



Matndagi murakkab so'zlarning izohli lug'ati



Aqlni charxlovchi quvnoq topshiriqlar



Mustaqil o'qish uchun qo'shimcha topshiriqlar

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.**

ISBN 978-9943-382-83-1

© «Yangiyo'l poligraf servis», 2011-2017.

© M. Xoliqova, Sh. Ergasheva, 2011-2017.

## SO‘ZBOSHI



Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymone-tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Aziz o‘quvchi! Qo‘lingizda turgan kitob sizning 1-2-3-sinflarda «Odobnoma» fanidan olgan bilimlaringizni boyitadi. Bu kitob bilan do‘st tutinsangiz, nafaqat odob-axloq qoidalari, balki hayotda o‘zingiz uchun kerak bo‘ladigan juda ko‘p ma‘lumotlarni bilib olasiz.

Siz asta-sekin ulg‘ayib, katta hayot sari qadam qo‘ymoqdasiz. Ana shu hayot bilan tanishishingizda, uning tartib-qoidalarini o‘zlashtirishingizda «Odobnoma» darsligi yordamga keladi.

Inson odobi bilan go‘zal. Shu bois bobokalonlarimiz yoshlikdan ilm va odob-axloq qoidalarini egallashga undashgan. Jumladan, Alisher Navoiyning boy ijodiy merosida odob-axloqqa oid ibratli fikrlar ko‘p.

Har kim ayon etsa yaxshi qiliq,  
Yetar yaxshilikdin anga yaxshilik.

E‘tiboringizga havola etilayotgan ushbu darslikda bu kabi qimmatli fikrlar juda ko‘p. O‘ylaymizki, Siz ularni qunt bilan o‘qiysiz va hayotda ularga amal qilasiz.

## O‘ZBEKISTON – KELAJAGI BUYUK DAVLAT



1. Ona zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk insonlardan kimlarni bilasiz?
2. Sport, san’at, ilm-fan sohasida yutuqlarga erishgan hamyurtlarimiz haqida so’zlab bering.

Ona vatanimiz O‘zbekiston qadimiy tarixga ega. Bu yurtdan dunyoni lol qoldirgan ko‘plab allomalar yetishib chiqqan.

Ota-bobolarimiz yurt ozodligi va mustaqilligi uchun asrlar davomida kurash olib borganlar. 1991-yil O‘zbekiston mustaqillikka erishdi.

Mustaqillik yillari yurtimizda barcha sohada misli ko'rilmagan yutuqlar qo'lga kiritildi. Yoshlarning bilim olishi, o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishi uchun sharoitlar yaratildi. Bizlar uchun shinam o'quv muassasalari, sport inshootlari qurildi.

Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanayotgan mamlakatlardan biridir. Yoshlarimiz sport musobaqalarida vatanimiz bayrog'ini yuqori ko'tarmoqdalar. Shuningdek, musiqa tanlovlari, fan olimpiadalarida yuksak natijalarni qo'lga kiritmoqdalar.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga butun dunyoda talab ortib bormoqda. Chunki ular tabiiyligi va sifati bilan ajralib turadi.

Yurt kelajagi yoshlar qo'lida. Shuning uchun yaxshi bilim olib, biror kasbni egallab, O'zbekiston taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.



1. Tarixda buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tanilgan ajdodimiz kim?

- A. Alisher Navoiy
- B. Amir Temur
- D. Ibn Sino
- E. Abu Rayhon Beruniy

2. Faqat yurtimizda ishlab chiqarilgan avtomobillar rusumi berilgan qatorni toping.

- A. Lada, Matiz, Damas
- B. Toyota, Lasetti, Tiko
- D. Lasetti, Kaptiva, Malibu
- E. Epika, Mercedes, Neksiya

## ONA-VATAN

### Orif To'xtash

Ozod Vatan, hur Vatan,  
Tuprogi zar, dur Vatan.  
Ko'zimizga to'tiyo  
Aylasak arzir Vatan –  
Serquyosh O'zbekiston,  
Beqiyos O'zbekiston!

Tutgan yo'li ziyoli,  
Farovonlik shiori.  
Bu o'ziga bek bo'lgan,  
O'zbeklarning diyori –  
Serquyosh O'zbekiston,  
Beqiyos O'zbekiston!



1. «Ona-Vatan» she'rini qanday tushundingiz? Mazmunini so'zlab bering.
2. Mustaqillik yillarida yosh avlod uchun yaratilgan sharoitlar haqida fikr yuriting.
3. O'zbekistonda qanday mahsulotlar yetishtiriladi?
4. Yurtimizda qaysi rusumdagi avtomobillar ishlab chiqariladi?
5. Biz vatanimiz taraqqiyotiga qanday hissa qo'shishimiz mumkin?
6. Ota-onangiz yoki aka-opangiz bilan mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar haqida suhbatlashing. Ulardan bilib olgan ma'lumotlaringizni o'rtoqlaringizga so'zlab bering.

## YURT TINCHLIGI – EL BOYLIGI



Qanday vaziyatda siz bilim olishingiz, do'st-laringiz bilan turli o'yinlar o'ynashingiz mumkin? Bayramlarni nishonlash, to'y-tomoshalar qilish uchun nima zarur?

Vatanni katta oilaga o'xshatish mumkin. Unda yashovchi insonlar esa ana shu oilaning a'zolaridir. Agar oila a'zolari hamjihat bo'lib, tinch-totuv yashasalar, bunday oila qut-barakali bo'ladi. Bunday oilaga hammaning havasi keladi. Demak, mamlakat taraqqiyoti uchun ham insonlar ahil-inoq yashashlari lozim.

Yurtimizdagi tinchlik tufayli biz bilim egallab, kundalik yumushlarimizni bajarib, oilamiz bag'rida xotirjam hayot kechirmoqdamiz. Afsuski, ana shunday osuda turmushimizni ko'rolmaydigan, unga raxna solish niyatida bo'lgan yovuz kimsalar ham yo'q emas. Ular turli yo'llar bilan tinchligimizni buzishga urinadilar. Biz yaxshi o'qib, ota-onamiz va ustozlarimizning gaplariga quloq solsak, ularga qarshi kurashgan bo'lamiz. Hamisha hushyor bo'lib, begona, shubhali kishilarning shirin so'zlariga uchmasligimiz lozim.



Mamlakatimiz birinchi Prezidenti ta'kidlaganlaridek, «Agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yengolmaydi».



1. Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan voqealar haqida nimalarni bilasiz?
2. Notinchlik hukm surayotgan mamlakatlardagi bolalarning hayoti haqida mulohaza yuriting.
3. Tinchlikni asrash uchun nimalarga amal qilishimiz lozim?

## BUYUK VATANPARVAR

Buyuk alloma Najmiddin Kubro donishmand va jasur inson bo'lgan. Chinakam vatanparvarlik, jasorat deganda mana shunday ajdodlarimiz ko'z oldimizga keladi.

Bir zamonlar Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul-tatar bosqinchilari yurtimizga bostirib kelgan. Bosqinchilar qishloq-shaharlarni talab, kulini ko'kka sovurib ketardilar.

Najmiddin Kubroning ilm-ma'rifat o'rganaman deb turli mamlakatlardan kelgan to'rt yuzdan ortiq shogirdi bor edi. U shogirdlarini to'plab, shunday dedi:

– Yurtimizga kelgan bu balo hamma yoqni yakson etadi. Har biringiz o'z yurtingiz sari yo'lga chiqing.

– Ulug' shayx, ot-ulovlar tayyor, vaqtni o'tkazmay siz ham tinch joylarga keting, – deb iltimos qilishdi shogirdlari.

– Men bu urushda qurbon bo'lishimni bilaman, ammo o'z Vatanimni tashlab ketolmayman. Sizlarga esa oq yo'l, – dedi shayx.



Najmiddin Kubro xalqni to'plab, Vatanni himoya qilishga chaqirdi. Ikki o'rtada qattiq olishuv boshlandi. Najmiddin Kubro bir necha dushmanni urib yiqitdi. Nogahon bir o'q uning ko'ksini teshib o'tdi. Holdan to'yib, madori ketayotganini sezsa ham, oxirgi tomchi qoni qolguncha jang maydonini tashlab ketmadi. Dushman bayrog'ini mahkam ushlab olgan holatda jon berdi.

Aytishlaricha, Najmiddin Kubroning jasorati hatto Chingizxonni ham hayratga solgan ekan.



Tinchlik haqidagi maqollarni mazmunan mosini tanlab, davom ettiring va daftaringizga yozing.

1) Yurting tinch –

a) odam vatanni.

2) Tinchlik bilan el ko'karar,

b) farovonlik yo'ldoshi.

3) Bulbul chamanni sevar,

d) sen tinch.

4) Tinchlik –

e) Yomg'ir bilan yer ko'karar.



1. Ota-onangiz bilan vatanparvarlik mavzusida suhbat quring. Suhbat asosida o'zingizga yoqqan ibratli hikoya, voqea yoki rivoyatni daftaringizga yozing.

2. Buyuk vatanparvar hikoyasidan olgan taassurotlaringiz bilan o'rtoqlashing. Sizingcha, Najmiddin Kubro nima uchun shogirdlari bilan ketmadi?

3. Tinchlik mavzusidagi she'rlardan yod olganmisiz? Aytib bering.

## O'ZBEKISTON – KO'P MILLATLI MAMLAKAT



1. O'zbekistonda qaysi millat vakillari yashaydi?
2. Boshqa millat vakillaridan do'stlaringiz bormi? Ular haqida so'zlab bering.

O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat. Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar tinch-totuv, farovon turmush kechirib kelmoqda. Har bir millat o'zining azaliy qadriyatlari, tarixi, urf-odatlarini bilan boshqa millatlardan farq qiladi. O'zbeklar mehmondo'st, mehnatsevar va bolajon xalq sifatida tanilgan.

Urush davrida O'zbekistonga evakuatsiya qilingan turli millatga mansub minglab insonlarga o'zbek xalqi uyidan joy berdi. O'ta og'ir sharoit bo'lishiga qaramay ko'plab o'zbek oilalari rus, ukrain, belorus va boshqa millatga mansub o'nlab ota-onasiz qolgan bolalarni o'z bag'riga oldi. Xalqimiz bir burda nonini ular bilan birga baham ko'rdi. Bu o'zbekona bag'rikenglikning bir ko'rinishi edi.

Yurtimizda yashovchi millatlarning rivojlani-shi, madaniyati, tili, dini va urf-odatlarini taraqqiy etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bugun-gi kunda O'zbekistonda 150 ga yaqin milliy madaniy markazlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Turli millat vakillari qo'lni-qo'lga berib mehnat qilsa, tinch-totuv yashasa, yurt yana-da obod, turmush esa farovon bo'ladi.

Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar-ning tili, urf-odatlarini va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi ham qayd etilgan.

Muqaddas kitoblarimizda ham inson aziz va mukar-ram sanaladi. Shunday ekan, qaysi millatga mansub bo'lmasin, insonni hamisha hurmat qilishimiz, zarur paytda undan yordamimizni ayamashimiz darkor.



**Millat** – tili, madaniyati, tarixi, yashash hududi, san'ati, qadriyatlarini umumiy bo'lgan kishilar gu-ruhi.

**Evakuatsiya** – xavfsiz joyga ko'chirish.



Daftaringizga katakchalardagi harflarni to'g'ri joylashtirib, millatlar nomini yozing.

J	T	K	O	I
K	Z	O'	E	B
O	Q	O	Z	Q
A	T	R	T	A

### TIL BILGAN EL BILADI

Sardorning opasi Nigora kollejda o'qiydi. U – juda odobli va aqlli qiz, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori. Nigora ingliz va rus tillarini o'z ona tilidek biladi.

Nigora O'zbekistonning turli hududlaridagi va chet mamlakatlardagi do'stlari bilan xat yozishib, muloqotda bo'lib turadi. Ota-onasiga, ukalariga ular haqida maroq bilan so'zlab beradi.

– Opajon, men ham sizga o'xshab do'stlarim ko'p bo'lishini xohlayman. Buning uchun nima qilishim kerak? – deb so'radi bir kuni Sardor opasining hikoyasini havas bilan tinglar ekan.

– Buning uchun til bilishing, insonlarni chin dildan yaxshi ko‘rishing kerak.

– Unda menga til o‘rganishim uchun yordam bera-sizmi?

– Albatta, til bilgan el biladi, deyishadi-ku. Buning uchun o‘zingda qiziqish va intilish bo‘lsa, bas. Shunda til o‘rganasan, boshqa xalqlar haqida ham bilib olasan. Mana, menga turli millatga mansub do‘stlarim o‘zlari, yurtlari va urf-odatlari haqida qiziq ma‘lumotlarni yo-zib turishadi. Kecha do‘stim Eliza o‘z vatani – Buyuk Britaniya, inglizlarning faxri bo‘lgan Big Ben, Temza daryosi va Britaniya muzeyi haqida yozib yuboribdi. Uning aytishicha, muzeyda bizning tariximizga oid ko‘plab eksponatlar, qo‘lyozmalar mavjud ekan. Men ham unga O‘zbekiston, hayot tarzimiz, urf-odatlarimiz haqida yozib yuboraman.

– Eh, qanday yaxshi. Men ham tezroq til o‘rganib, do‘stlarim ko‘payishini istayman, – dedi Sardor ko‘zlari porlab.



**Big Ben** – Buyuk Britaniya poytaxti Londondagi tarixiy-me‘moriy obidalardan biri.

**Temza** – London shahridan oqib o‘tuvchi daryo.



1. Nima uchun Sardorning opasi Nigoraga havasi keldi?
2. Do‘stlaringiz ko‘p bo‘lishi uchun nimalarga ahamiyat berish kerak deb o‘ylaysiz?
3. Agar chet elda do‘stingiz bo‘lganda, unga ni-malar haqida yozib yuborgan bo‘lar edingiz?

## AJDODLARIMIZ ARDOQLAGAN QADRIYATLAR



Rasmlarda qanday milliy qadriyatlarimiz tasvirlangan? Xalqimizning qaysi qadriyatlarini bilasiz?

«Qadriyat» juda keng maʼnoli tushuncha boʻlib, inson va insoniyat uchun qadri narsalarni anglatadi. Qadriyat ming yillar davomida insonlar tomonidan ardoqlanib, ajdodlardan avlodlarga oʻtib, sayqallanib kelinayotgan moddiy va maʼnaviy boyliklar, anʼana va urf-odatlar, fazilatlaridir. Ota-bobolarimiz ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, tinchlik, ozodlik, mehr-oqibat, saxovat, mehmondoʻstlik kabi qadriyatlarni ayniqsa eʼzozlaganlar.

Bizda jahonning boshqa xalqlariga oʻxshamaydigan urf-odatlar, bayramlar, marosim va anʼanalar mavjud. Ajdodlarimiz asrlar davomida nishonlab kelgan Navroʻz bayrami shular jumlasidandir.



Navro‘z tabiatning uyg‘onishi, ezgulik, yangilanish va yasharish bayramidir. Qadimda Navro‘z bayrami kuni insonlar eng yaxshi odatlarini namoyish qilishgan: chiroyli liboslar kiyib bezanishgan, lazzatli taomlar tayyorlashgan. Hozirgi kunda ham bu bayramni juda keng nishonlaymiz. Navro‘z kuni doshqozonlarda sumalak, halimlar tayyorlanadi, o‘yin-kulgi avjiga chiqadi. Shu bilan birga, bemorlar, e‘tiborga muhtoj insonlarning holidan xabar olinadi.

Hashar – ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan go‘zal an‘analardan biri. Qadimda odamlar hashar yo‘li bilan imoratlar, ko‘priklar, madrasa va masjidlar barpo etishgan. Bu an‘ana hozirga qadar davom etib kelmoqda.

Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish ham qadriyat sanaladi. Qarindosh-urug‘larni yo‘qlab turish, bemorlarning holidan xabar olish savobli ishlardir.

Milliy qadriyatlarimiz orasida insonni jismonan va ma‘nan chiniqtirishga, xalq o‘rtasida birdamlikni kuchaytirishga xizmat qiladigan ko‘pkari, kurash singari qadimiy milliy o‘yinlar ham bor. Bu o‘yinlarda g‘alaba qozonish uchun halollik, mardlik, jasurlik va chapdastlik talab etiladi.

Qadriyatlar – xalq boyligi. Ularni ardoqlab, keyingi avlodlarga yetkazish har birimizning burchimizdir.



**Hashar** – arabcha so‘z bo‘lib, «ko‘pchilik», «jamoat», «guruh», ma‘nolarini anglatadi. Ko‘pchilik bo‘lib biror yumushni bajarish, ezgulik va mehr-muruvvatga boy qadriyat hashar deyiladi.

**Ko‘pkari (uloq)** – O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiy ommaviy milliy o‘yinlaridan biri. Asosan hosil bayramlari, to‘y va sayillar munosabati bilan o‘tkazilgan va hozirda ham ayrim hududlarda o‘tkazib kelinmoqda.

## HASHAR – ELGA YARASHAR

(Alisherning hikoyasi)

Bizning mahalla ahli juda inoq. Mahalladoshlari-miz yolg'iz, bemor kishilarning ahvolidan xabar olishni, qiynalganlarga yordam qo'lini cho'zishni o'z burchlari deb biladilar. Kimdir uy qurmoqchi yoki to'y qilmoqchi bo'lsa, hamma maslahatga yig'iladi, har kim qo'lidan kelgancha yordam beradi.

Menga, ayniqsa, har yili Mustaqillik va Navro'z bayramlarida o'tkaziladigan hasharlar yoqadi. Shu kuni bar-vaqt turib, dadam bilan mahallaga chiqamiz. Mahalladosh-lar bilan bir oila a'zolaridek qo'lni qo'lga berib mehnat qilamiz: ko'chalarni, ariq-zovurlarni tozalaymiz, ko'chat eka-miz, daraxtlarga shakl berib, oqlaymiz. Keyin mahalla ahli dasturxon atrofida jamuljam bo'ladi. Hamma topganini o'rtaga qo'yib, ko'pchilik bilan birga baham ko'radi.

Hashar juda ko'ngilli tadbir. Unga har kim: «O'z his-samni qo'shsam», – deydi. Hashar tugagach, ko'cha va xonadonlarimizning sarishtaligini ko'rib, ko'nglimiz tog'dek ko'tariladi.



1. Qadriyat deganda nimani tushunasiz? Ajdodlarimiz ardoqlagan qadriyatlar haqida gapirib bering.
2. Qaysi milliy o'yinlarimiz kishida mardlik, halollik, jasurlik va epchillikni tarbiyalashga xizmat qiladi?
3. Hashar nima? Siz ham hasharda ishtirok et-ganmisiz?
4. Bobongiz, buvingiz yoki ota-onangiz bilan qadriyatlar mavzusida suhbat quring. Sizda qaysi urf-odat yoki an'analar katta taassurot qoldirdi? Nima uchun?



## O'ZBEKISTON – MADANIY VA MA'NAVIY MEROSLARGA BOY O'LKA



1. Rasmlarda madaniy-ma'naviy merosimizning qanday namunalari aks etgan?
2. Siz yashayotgan hududda ham qadimiy obidalar bormi? Ular haqida so'zlab bering.

Biz ajdodlarimiz qoldirgan madaniy va ma'naviy yodgorliklar bilan har qancha faxrlansak arziydi. Ular yaratgan asarlar, kashfiyotlar biz uchun ma'naviy meros hisoblanadi.

Tarixda buyuk tabib sifatida tanilgan zot bobokaloni-miz Abu Ali ibn Sinodir. Butun dunyodagi tibbiyot so-

hasi mutaxassisleri hozirgi kunga qadar u yaratgan ko'p jildli «Tib qonunlari» kitobiga tayanadilar.

Vatandoshimiz Imom al-Buxoriyning nomi esa butun islom olamida hurmat-ehtirom bilan tilga olinadi. U eng ishonchli hadislarni to'plab, «Al-Jome' as-sahih» kitobini tuzdi. Bu kitob islom dinida «Qur'on»dan keyingi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniyning kitoblaridan qadimgi davrlar va odamlar haqidagi qimmatli ma'lumotlarni o'qiyimiz.

Yevropada al-Fraganus nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad al-Farg'oniy esa o'z kashfiyotlari bilan dunyoni lol qoldirgan. U Misrdagi Nil daryosi suvi sathini o'lchaydigan asbobni ixtiro qildi. Bu kashfiyoti bilan u minglab odamlarning hayotini suv toshqinidan asrab qoldi.

Mirzo Ulug'bek Samarqandda rasadxona barpo ettirib, yulduzlar ilmini o'rgandi. Uning «Ziji Ko'ragoniy» asarida 1018 ta yulduzning falakdagi o'rne aniq ko'rsatib berilgan.

Buyuk ajdodlarimiz nomi hamisha barhayot. Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiyga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad al-Farg'oniy xotirasiga muhtasham haykallar o'rnatilgan.

Yurtimiz tarixiy obidalarga ham boy. Dunyo ahli Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarini bir ko'rsam deya orzu qiladi. Turli davrlarda bunyod etilgan me'moriy obidalar tariximizning naqadar ulug'vorligidan dalolat berib turibdi. Shu bois ham bobomiz Amir Temur o'zi qurdirgan Oqsaroy peshtoqiga: «Qudratimizga shak-shubhangiz bo'lsa, biz qurdirgan binolarga boqing», – deb yozdirgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida har bir fuqaro xalqning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashi lozimligi qayd etilgan. Bunday yodgorliklar umumxalq boyligi hisoblanadi va ularni qasddan yo'q qilish jinoyatdir.



**Quyidagi topshiriqni daftaringizda bajaring.**

1. Tibbiyot ilmining sultoni – \_\_\_\_\_.
2. \_\_\_\_\_ hadislarni topib, targ'ib etgan.
3. Ahmad al-Farg'oniy Yevropada \_\_\_\_\_ nomi bilan mashhur.
4. Mirzo Ulug'bek \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ barpo ettirgan.



1. Buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz? Ularning qaysi jihatlaridan o'rnak olsak arziydi?
2. Dunyoning qaysi shaharlarida ajdodlarimiz haykallari o'rnatilgan?
3. Ma'naviy-madaniy merosni avaylab-asrash deganda nimani tushunasiz?
4. Buyuk ajdodlarimizdan birining hayoti, ijodi haqida ma'lumot to'plang va daftaringizga yozing.

## DAVLAT TILI



Alisher Navoiy



O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarining tillari, urf-odatlarini va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

### 4-modda

Davlat tili deganda shu davlat hududida asosiy so‘zlashuv vositasi bo‘lgan til tushuniladi. Barcha davlat hujjatlari davlat tilida yoziladi, yig‘inlar, anjumanlar shu tilda olib boriladi.

Har bir davlat o‘z davlat tilining sofligini saqlab, boyib borishini ta‘minlaydi. Davlat tilini o‘rganish va o‘qitish uchun hukumat zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

O‘zbek tili uzoq va boy tarixga ega. Tilimiz rivojida Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugna-kiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi

ajdodlarimizning xizmatlari kattadir. Ayniqsa, Alisher Navoiy «Xamsa»dek buyuk asar yaratib, o'zbek adabiy tilining shakllanishiga katta hissa qo'shdi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan. Shu bois har yili ushbu sanani til bayrami sifatida nishonlaymiz.

Mustaqillik yillarida ona tilimiz har jihatdan boyidi, rivojlandi. Ayrim shahar, tuman, qishloq va mahallalarning qadimiy nomlari tiklandi. Ko'cha, tashkilot va muassasalar nomlari o'zbekcha yuritila boshlandi.

2016-yilda yurtimizda Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etildi. Bu yerda ona tilimizni tadqiq etuvchi olimlar, yetuk mutaxassislar tayyorlanadi.

Kishining ona tiliga hurmat-e'tibori shu tilda to'g'ri va ravon so'zlashi, chiroyli va savodli yozishida ko'rinadi. Inson o'z ona tilini qanchalik yaxshi bilsa, uning boyliklaridan shunchalik bahramand bo'ladi.



Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir.

Ona tilini chuqur bilgan kishi Vatani tarixini ham yaxshi biladi. Tilga e'tiborli bo'lish, uning sofligini saqlash va xushmuomala bo'lish insonning ziynatidir.

Shu bilan birga, chet tillarini bilish bugungi kun yoshlari uchun juda zarur. Qadimiy kitob – «Avesto»da ezgulik timsoli Axura Mazda tilidan shunday deyiladi: «Men o'z Vatanimni himoya qila oladigan va ko'p tillarni egallagan farzandlarimni sharaflayman».

Ota-bobolarimiz «Til bilgan – el biladi», deb bejiz aytishmagan va ko'p til bilgan insonlarni qadrlashgan.



## TIL HAQIDA HIKMATLAR

Nodonlardek yuzlab soʻzni qilma qator,  
Donolardek bir soʻz degil, lek maʼnodor.

**Saʼdiy Sheroziy**

Yaxshi soʻz – jon ozigʻi,  
Yomon soʻz – bosh qozigʻi.

**Xalq maqoli**



**1. Qaysi mutafakkirni oʻzbek adabiy tilining asoschisi sifatida bilamiz?**

- A) Zahiriddin Muhammad Bobur;
- B) Alisher Navoiy;
- D) Mahmud Koshgʻariy;
- E) Yusuf Xos Hojib.

**2. Oʻzbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni qachon qabul qilingan?**

- A) 1989-yil 21-oktabrda; | B) 1991-yil 1-sentabrda;
- D) 1992-yil 8-dekabrda; | E) 1992-yil 2-martda.



1. Davlat tili deganda nimani tushunasiz?
2. Islom Karimovning «Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch» kitobidagi ona tilimizga oid fikrlarni oʻqib oling.
3. Mustaqillik yillarida ona tilimizning rivojlanishi uchun qanday ishlar amalga oshirildi?
4. Atrofingizdagi insonlardan kimning soʻzlashuv odobi sizga maʼqul? Oʻzingizni, til odobiga rioya qilyapman, deb oʻylaysizmi?
5. Til haqidagi hikmatlarning mazmuniga eʼtibor qiling va eslab qoling.

## MUSTAQILLIK YILLARIDA TIKLANGAN TARIXIY OBIDALAR, YODGORLIKLAR



1. Yuqoridagi rasmlarda «Hazrati Imom» majmuasi va Shohi Zinda tarixiy obidasi aks ettirilgan. Bu obidalar haqida nimalarni bilasiz?
2. Siz tarixiy obidalar va yodgorliklarni ziyorat qilganmisiz?
3. Shunday joylarda bo'lganingizda qanday tuyg'ularni his qilgansiz?

Mustaqillik yillarida ona-Vatanimiz tarixini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Chunki Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q». Istiqloq sharofati bilan ko'plab tarixiy obidalar, yodgorliklar tiklandi, buyuk ajdodlarimiz dafn etilgan joylar obodonlashtirildi.

Buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshband insonlarni ezgulikka, halol mehnat qilishga va go'zal axloqli bo'lishga undagan. 1993-yilda yurtimizda alloma tavaludining 675 yilligi keng nishonlandi. Hozir bu zotning milliy uslubda qayta tiklangan maqbarasi ziyoratchilar bilan gavjum.

1998-yil Samarqandda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi tantana qilindi. Xartang qishlog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi ochildi. Shu yili jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ajdodimiz Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi ham keng nishonlandi. Farg'ona shahrida Ahmad al-Farg'oniy nomidagi istirohat bog'i ochilib, Quva shahrida uning haykali o'rnatildi.

Shuningdek, istiqlol yillarida jasur sarkarda Jalolidin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, «Alpomish» dostonining 1000 yilligi nishonlandi. Xorazmda Jalolidin Manguberdi, Termizda esa Alpomish haykallari ochildi. 2000-yilda islom huquqshunosi Imom Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi nishonlandi. Marg'ilonda yodgorlik majmuasi bunyod etilib, allomaning ramziy maqbarasi o'rnatildi.

Urganchda 2001-yilda «Avesto» kitobining 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanalar bo'lib o'tdi. Yubiley munosabati bilan u yerda «Avesto» nomidagi yodgorlik majmuyi qad rostladi.

Tiklangan yodgorliklar, tarixiy obidalar ota-bobolarimiz ruhiga hurmat-ehtirom ramzidir. Milliy ma'naviyatimizning yuksalishiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

### **Buni yodda tuting!**

**«Avesto»** – O'rta Osiyo va sharq xalqlarining qadimgi yozma yodgorligi, zardushtiylarning muqaddas kitobi.

**«Alpomish»** – turkiy xalqlarning yirik va qadimiy dostoni. Unda mardlik, qahramonlik, insoniylik, ezgulik ulug'langan.





**Yubiley** – buyuk shaxslar tavalludining yoxud qutlug‘ sanalarning keng miqyosda nishonlanishi.

**Maqbara** – arabcha so‘z bo‘lib, «qabr» degan ma‘noni bildiradi. Imorat ko‘rinishidagi bino. Qadimda mashhur insonlarning qabrlari ustiga qurilgan.



## POYTAXTGA SAYOHAT

Yangi o‘quv yili boshlanishidan oldin Anvarjonning dadasi:

– Agar yil davomida a‘lo baholarga o‘qisangiz va odobli bo‘lsangiz, yozda sizlarni sayohatga olib boraman, – deb va‘da berdi.

Bu gapni eshitgan Anvarjon va singlisi Nodira as-toydil o‘qishga kirishdilar. Dadasi va‘da qilganidek, yozgi ta‘tilda ular poytaxt shahar – Toshkentga oilaviy sayohatga bordilar. Dastlab Mustaqillik maydonida sayr qilishdi. Anvarjonga maydondagi Ezgulik arkasi juda yoqdi, u Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Ular «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuyini ziyorat qilib, qatag‘on davrida qurbon bo‘lgan ajdodlarimiz haqida juda ko‘p ma‘lumotlar olishdi.

Anvarjon va Nodira Hazrati Imom majmuyini havas va hayrat bilan tomosha qilishdi. Osmono‘par minoralar ularda g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otdi.

Kechki payt ular Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘ga borib hordiq chiqardilar. Mehmonxonaga qaytar ekan, Anvarjon dadasidan so‘radi:

– Dadajon, Toshkentni aylanib bo‘ldikmi?



Dadasi unga javob qaytardi:

– Yo‘q, o‘g‘lim, poytaxtimizda diqqatga sazovor joylar, tarixiy yodgorliklar shunchalik ko‘pki, ularni aylanib chiqish uchun bir hafta kamlik qiladi. Ertaga sizlarni Amir Temur xiyoboniga, Temuriylar tarixi va O‘zbekiston tarixi davlat muzeylariga hamda hayvonot bog‘iga olib boraman. Kechki payt sirk tomoshasini ko‘ramiz, kelishdikmi?

– Juda soz bo‘lardi, – baravar javob berishdi Anvarjon va Nodira.

– Yodingizdan ko‘tarilmasin, hali teatrga ham tushishimiz kerak, – dedi onasi.

Anvarjonlarning oilasi Toshkentda bir hafta maza qilib aylanishdi. Ular sayohatdan qaytishar ekan, Nodira:

– Menga sayohat juda yoqdi, do‘stlarimga bu haqda gapirib beraman. Dadajon, kelasi yili qaysi shaharga boramiz? – deb so‘radi.

– Nasib etsa, kelasi yilda tezyurar «Afrosiyob» poezdida Samarqand va Buxoroga boramiz. Odamlar bu qadimiy shaharlarni tomosha qilish uchun chet ellardan kelishadi-yu, nega endi biz bormas ekanmiz? – deya javob berdi dadasi.

– Rahmat, dadajon. Biz ham odobli va aqlli bola bo‘lishga va‘da beramiz, – deyishdi Anvarjon va Nodira.



1. Nima uchun Vatanimiz tarixini, ajdodlar merosini o‘rganamiz?
2. Mustaqillik yillarida tiklangan qaysi obidalarni bilasiz?
3. Ziyoratga borish odobi haqida kattalar bilan suhbatlashing.
4. O‘zingiz yashayotgan hududdagi ziyoratgohlar haqida nimalarni bilasiz?
5. «Poytaxtga sayohat» hikoyasini o‘qing. Anvarjonlarning oilasi poytaxtimizning qaysi joylarida bo‘lishdi?

## TAKRORLASH

Aziz o‘quvchi! Siz o‘tgan darslar mobaynida O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat ekanligi, unda barcha millatlar ahil-inoq yashayotganini bilib oldingiz. Shu bilan birga, tinchlik eng bebaho ne‘mat ekanligini anglab yetdingiz.

Yurtimiz qadimiy tarixga ega. Ajdodlarimizdan bizga boy ma‘naviy va madaniy meros qolgan. Ularni ko‘z

qorachig'idek asrash, boyitish va kelajak avlodlarga yetkazish – har birimizning burchimizdir.

O'tgan darslarimizning mazmun-mohiyati Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» kitobidan olingan quyidagi parchada ham o'z aksini topgan: «Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi.

Bu ildiz qancha teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi.

Albatta, jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Mana shu ulug' tuyg'u har birimizning dilimizga jo bo'lishi, hayotimiz mazmuniga aylanishini istardim.

Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatan ishqini jo'sh urgan odamgina buyuk ishlariga qodir bo'ladi».



1. Tinchlikni asrash har bir insonning burchi. Siz tinchlikni asrash uchun nimalar qilishingiz kerak, deb o'ylaysiz?
2. Xalqimiz ardoqlagan qadriyatlar haqida gapirib bering.
3. Mustaqillik yillarida ma'naviy va madaniy merosimizni tiklash borasida qanday ishlar amalga oshirildi?
4. Qanday inson buyuk ishlarga qodir bo'ladi?
5. Yurtimizdagi qadimiy shahar yoki tarixiy yodgorliklardan biri haqida ma'lumot to'plang va matn tuzing.

## MILLIY MEROSIMIZ – FAXRIMIZ



1. Rasmlarda qanday amaliy san'at turlari tasvirlangan?
2. Agar sizda imkoniyat tug'lsa, qaysi hunarni o'rgangan bo'lardingiz?

Juda qadim zamonlarda odamlar tirikchilik uchun zarur bo'lgan buyumlarni, ov qilish uchun qurol-yarog' yasashni asta-sekin o'zlashtirib olganlar.

Inson hamisha go'zallikka intilib yashaydi. Qadimgi odam ishlatayotgan asbobi chiroyli bo'lishini istagani uchun uni naqshlar bilan bezagan, gullar, rasmlar solgan, turli shakl, rang va jilolar bergan. Shu tariqa oddiy buyum yoki narsalar san'at asari darajasiga ko'tarilgan.

Arxeologik qazishmalar davomida topilgan ro'zg'or buyumlari, zeb-ziynatlar, qurol-yarog' va turli ashyolar yurtimiz hududida hunarmandchilik juda qadimdan rivojlanganini ko'rsatadi.

Shunisi qiziqki, har bir joy yoki hududda hunarmandchilikning qaysidir turi ko'proq rivojlangan. Ishlab chiqarilgan buyum va ashyolar shu hududgagina xos bo'lgan bezak va naqshlar bilan bezatilgan. Masalan, kishining qanday nusxa do'ppi yoki to'n kiyganiga qarab, uning qayerlik ekanini bilib olish mumkin bo'lgan.

O'tmishda bir xil hunar bilan shug'ullanuvchi kishilar bir mahallada yashagan. Shuning uchun shaharlarda misgarlik, to'qimachilik, po'stindo'zlik, pichoqchilik, zargarlik, do'ppido'zlik, tandirchilik singari mahallalar vujudga kelgan.

Bobomiz Amir Temur uzoq mamlakatlardan turli kasb egalari va hunarmandlarni olib kelib, yurtimizda hunarmandchilikni rivojlantirishga hissa qo'shgan.

Marg'ilon kamalakang atlas-u adraslari, Buxoro zar-do'zi buyumlari, Chust do'ppisi va pichog'i, Rishton sopol idishlari, Samarqand novvoychiligi, Xiva yog'och o'ymakorligi va gilamdo'zligi bilan mashhurdir.

O'zbek milliy liboslari go'zalligi bilan ko'zlarni quvnatadi. Atlas, adras, beqasam kabi matolar tabiiy ip va ipakdan to'qilgani uchun salomatlikka ziyon yetkazmaydi.

Milliy matolarimizdan dizaynerlar tomonidan tayyorlangan liboslar bugungi kunda dunyoning Milan, Parij, Tokio kabi moda markazlarida namoyish etilmoqda.

O'zbekistonda hunarmandchilikning eng qadimiy va keng tarqalgan turi kulolchilikdir. Yurtimiz kulollari tomonidan ishlangan ko'za, lagan, piyola, kosa va boshqa buyumlar sifatligi, bezakdorligi bilan ajralib turgan. Bunday buyumlar savdo karvonlari orqali boshqa mamlakatlarga ham olib borilgan.

Ota-bobolarimiz binokorlikda ham dovrug' taratishgan. Ular tomonidan barpo etilgan binolar va obidalar dunyo ahlini hanuz hayratga solmoqda. Ganchkorlik,



naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi sohalarida juda katta yutuqlar qo'lg'a kiritilgan. Yurtimizda miniatura va xattotlik san'ati ham qadim tarixga ega. Kamoliddin Behzod, Mirak Naqqosh kabi san'at ustalarining nomi butun dunyoda mashhur.

Bugungi kunda mamlakatimizda xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Poytaxtimizdagi Davlat Amaliy san'at muzeyida xalq amaliy san'atining 50 dan ortiq turi namoyish etib kelinmoqda.



**Miniatura** – amaliy san'atning bir turi. O'ta nozik ishlangan kichik tasviriy san'at asari.

**Xattotlik** – chiroyli yozish san'ati.

**Arxeologik qazilma** – tarixiy joylarda amalga oshiriladigan izlanishlar.

## NAVOIY VA MUSAVVIR

Alisher Navoiy o'z libosini o'zgartirgan holda bir faqir yosh musavvirning kulbasiga kelib, eshigini taqillatdi. «Labbay» sadosini eshitgach, ijozat so'rab ichkariga kirdi. Uy ichida shoh, ya'ni Sulton Husayn Boyqaro tasviridan ko'ra ko'proq o'zining tasvirlarini ko'rdi. Hayratlanib, musavvirdan so'radi:

– Bu tasvirlar kimniki?

Musavvir tavoze bilan javob berdi:

– Hunarmandlarning otasi Alisher Navoiy hazratlari-niki, men hozir ul zotning huzurlarida turibman.

Navoiy dedi:

– Nega shu paytgacha huzurimga bormadingiz?

Musavvir javob berdi:


– Agar borganimda, tuhfarlar in'om qilardingiz. U hol-

da men o'z asarlarimni faqat sizga sotgan bo'lardim. Vaholanki, sizning tasvirlaringizga xaridor juda ko'p. Men sizning marhamatingizdan ko'ra o'z mehnatim va hunarim bilan kun kechirishni ma'qul ko'rdim.

Bu gaplardan so'ng Alisher Navoiy g'arib musavvirni o'z homiyligiga oldi. Bu yigit kelajakda Sharqning buyuk musavviri bo'lib tanilgan Kamoliddin Behzod edi.



Amaliy san'at buyumlari kim tomonidan yaratilishini toping va daftaringizga yozing.



- 1) musavvir;
- 2) zargar;
- 3) to'quvchi;
- 4) chevar;
- 5) kulol;
- 6) naqqosh;
- 7) haykaltarosh.



1. Mamlakatimizda hunarmandchilikning qaysi turlari rivojlangan?
2. Milliy liboslarimizning qanday turlarini bilasiz? Ularni sanab bering.
3. Yosh musavvir nima uchun Navoiy huzuriga bormadi?
4. O'z mehnati bilan halol kun kechirish deganda nimani tushunasiz?



## YURTIMIZDA NISHONLANADIGAN UMUMXALQ BAYRAMLARI. OILAVIY AN'ANALAR



1-yanvar

Yangi yil bayrami



8-mart

Xotin-qizlar kuni



21-mart

Navro'z umumxalq bayrami



9-may

Xotira va qadrlash kuni



1-sentabr

Mustaqillik bayrami



1-oktabr

O'qituvchi va murabbiylar kuni



8-dekabr

Konstitutsiya kuni



Ramazon va Qurbon hayiti

Bayramlar inson hayotida muhim o‘rin egallaydi. Bunday kunlarda insonlar bir-birlariga mehr-oqibat ko‘rsatadilar, do‘stlik rishtalarini bog‘laydilar, ezgu maqsad va g‘oyalarni atrofida jipslashadilar.

Har bir xalqning sevib nishonlaydigan bayram va marosimlari bor. Xalqimiz Yangi yil, Navro‘z, Mustaqillik, O‘qituvchilar va murabbiylar, Xotin-qizlar kuni singari bayramlarni, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan sanani katta tantana va shodiyona bilan nishonlaydi. Bundan tashqari, mamlakatimizda Ramazon va Qurbon hayiti singari diniy bayramlar ham keng nishonlanadi.

«Bayram – xalqning shodlik va xursandchilik kunidir», degan edi buyuk ajdodlarimizdan biri Mahmud Koshg‘ariy.

Odamlar juda qadim zamonlarda turli munosabat bilan marosimlar o‘tkazishgan. Keyinchalik ular bayramlarga aylangan.

Masalan, Navro‘z bayrami bahorgi teng kunlik, ya‘ni kun bilan tun teng bo‘lgan, tabiat ayni uyg‘onadigan paytda nishonlangan. Qadim zamonlarda odamlar uchun qishda issiq boshpana, oziq-ovqat topish muammo edi. Shuning uchun bahor kelib, kunlar isishi ular uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan va bu kunni bayram qilishgan. Bayram kuni jang-ujadallar, urushlar to‘xtatilgan, arazlashganlar yarashgan, aybdorlarning gunohi kechirilgan.

Xalqimizda avloddan avlodga o‘tib kelayotgan oilaviy an‘analarni ham bor. Ko‘pchilik oilalarda shu oila uchun muhim bo‘lgan sanani nishonlash an‘ana tusiga kirgan. Ayrim xonadonlarda esa oilaviy ravishda kitob o‘qiladi, sport bilan shug‘ullaniladi. Ota-ona va farzandlarning birgalikda bog‘ yaratishi, qaysidir kasb yoki hunar bilan shug‘ullanishi o‘zbek oilalariga xos an‘anadir. Bunday

an'analar oila mustahkamligi va totuvligi uchun xizmat qiladi.



## ULANADI BAYRAMLAR

### Po'lat Mo'min

Bayramlarga bayramlar,  
Ulanadi, qaranglar.  
Shodligimiz bu damlar,  
Qo'shiq bo'lib jaranglar.

Bayramlarga bayramlar,  
Chiroyini sochadi.  
Tabriklashib odamlar,  
Dilga dilni ochadi.

Bayram bo'lib bahona,  
Ulanadi quvonchlar.  
Do'stlar kulib do'stona,  
Oshar yana ishonchlar.

Bayramlarga bayramlar,  
Ulanadi, qaranglar.  
Shodligimiz bu damlar,  
Qo'shiq bo'lib jaranglar.



1. O'zbekistonda qanday bayramlar nishonlanadi?
2. Sizga ko'proq qaysi bayram yoqadi? Nima uchun?
3. Qaysi bayram ezgulik, mehr-oqibat, saxovat timsoli? Javobingizni izohlab bering.
4. Sizing oilangizda qanday an'analar mavjud? Bu haqda o'rtoqlaringizga so'zlab bering.
5. Bayram va marosimlarda inson o'zini qanday tutishi kerak?

## MUSIQANING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI



Xalqaro musiqiy tanlovlar g‘oliblari

Musiq va qo‘shiqqa muhabbat inson qalbiga ona allasi bilan singadi. Go‘dak ona allasining ta‘sirida orom oladi, tinchlanadi.

Yaxshi musiq insonning ruhiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, tuyg‘ularini tarbiyalaydi, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlaydi. Musiq ohanglari insonni o‘ylashga chorlaydi, ezgulikka da‘vat etadi. Alisher Navoiyning fikricha, «Fahm-farosatli sozandaning yoqimli ijrosi hatto toshko‘ngil odamni ham maftun qiladi».

O‘zbekistonda musiq san‘ati juda qadimdan rivojlangan. Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod qishlog‘idan 3 ming 300 yil avval suyakdan yasalgan nay cholg‘usi topilgani buning isbotidir. O‘z davrida Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur sozanda va xonandalarga homiylik qilganlar, o‘z asarlarida musiq to‘g‘risida qiziqarli fikrlarni yozganlar.

Musiqa insonga ta‘sir etib, uni yuksak maqsadlar sari yetaklaydi. Yurtimiz madhiyasini tinglaganimizda qalbimiz faxr-iftixorga to‘ladi. Sportchilarimiz jahon maydonlarida g‘olib bo‘lganlarida ham O‘zbekiston bayrog‘i ko‘tarilib, madhiyamiz yangraydi.

## O'zbek va jahon musiqa san'ati namoyandalari



Yunus Rajabiy



Muxtor Ashrafiy



Mutal Burxonov



Iogann  
Sebastyan Bax



Volfgang  
Amadey Motsart



Lyudvig  
van Betxoven

Qadimda jangchilar jang oldidan nog'ora, karnay-surnaylar chalib ruhlantirilgan. Musiqa ohangi ularning qalbidida ona-Vatanga bo'lgan muhabbatni jo'sh urdirgan.

Inson hayotidagi eng quvonchli kun – to'y ham kuy-qo'shiq bilan fayzli. Bu kunda odamlar qo'shiq kuylab, raqsga tushib, dard-g'amlarini unutadilar.

Umumxalq bayramlarida ijro etilgan kuy-qo'shiqlar esa xalqni birdamlikka chorlaydi.

To'y-u tantanalar, bayram va ko'ngilochar tadbirlar milliy cholg'u asboblari sadosi bilan yanada qiziqarli bo'ladi. Doira, chang, dutor, tanbur, rubob, g'ijjak, nay, karnay, surnay singari milliy cholg'u asboblari orqali



taraladigan ohanglar insonning yurak-yuragiga borib yetadi.

Pianino, organ, skripka, akkordeon, violonchel, fleyta, klarnet kabi jahon xalqlari musiqa asboblariidan taralgan yoqimli kuylar ham inson ruhiyatiga orom bag'ishlab, qalbini go'zalliklarga oshno qiladi.

Mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirish uchun turli ko'rik-tanlovlar, musiqiy anjumanlar o'tkazilmoqda. «Nihol» ko'rik-tanlovi, «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali shular jumlasidandir. Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablari ta'mirlanib, musiqa asboblari va jihozlar bilan ta'minlanmoqda.



### Topishmoqlarning javobini toping.

Ikki tola sochi bor,  
Bo'y bilan barobar.  
Boshsiz-u bor qulog'i,  
U shodlikning o'rtog'i.

Qo'lda o'ynar ikki cho'p,  
Sim torlari juda ko'p.

O'zi mitti  
Ovozi olamga yetdi.

Bo'yi pastak tayog'im,  
Yengil qushdek tayog'im,  
Teshigidan puflasam,  
Chalar hushtak tayog'im.



1. O'zbekiston hududida musiqa madaniyati qachondan rivojlana boshlagan?
2. Yoqimli musiqa insonga qanday ta'sir qiladi?
3. Jahon xalqlari musiqa asboblariidan qaysilarini bilasiz? Ular ishtirokidagi kuylarni tinglaganmisiz?
4. Ota-onangiz yordamida o'zbek milliy musiqalari nomlarini daftaringizga yozing.

## MAMLAKATIMIZ HUDUDLARIDAGI QO'SHIQCHILIK SAN'ATINING O'ZIGA XOSLIGI



Agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumta-roq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egalab olishi ham hech gap emas.

Yurtimizdagi qo'shiqchilik san'ati uzoq tarixga ega. Qadimgi odamlar mehnat qilish jarayonida bajarayotgan ish turlariga monand qo'shiqlar to'qib, kuylashgan. Shu orqali ular o'zlariga ruhiy madad berishgan, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlashgan. Eng qadimgi qo'shiqlar Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida keltirilgan. Qadimda qo'shiqlar «ir» yoki «jir» deb nomlangan.

Ota-bobolarimiz alla, o'lan, lapar, yor-yor, terma, aytishuvlarni sevib kuylashgan, miriqib tinglashgan. Baxshilar esa «Alpomish», «Go'ro'g'li» singari dostonlarni to'y va marosimlarda qo'biz yoki do'mbira chertib, yodan ijro etishgan. Ayrim qo'shiqlar doira, dutor yoki tanbur singari cholg'u asboblari jo'rligida kuylangan.

Yaxshi qo'shiq va musiqa inson ruhiyatiga ko'tarinkilik baxsh etadi, asabni tinchlantirib, xotirani mustahkamlaydi. Shuning uchun Ibn Sino ayrim kasalliklarni musiqa yordamida davolagan. Vatan va vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar esa insonni to'lqinlantiradi, yuksak maqsadlar sari chorlaydi, yurt ravnaqi uchun xizmat qilishga da'vat etadi.

O'zbekistonning har bir hududida qo'shiqchilik san'ati o'ziga xos tarzda rivojlangan. Xorazm vohasida yaratilgan qo'shiqlar o'ynoqligi, serzavqligi bilan ajralib turadi.

«Lazgi» kuylanganda raqsga tushmagan odam deyarli qolmaydi. Fargʻona vodiysida esa «Omon yor», «Tanovar» singari qoʻshiq va kuylar urf boʻlgan. Likop yordamida ijro etiladigan katta qoʻshiqlarni kuylash uchun esa kuchli ovoz va alohida iqtidor talab qilingan. Mamlakatimizda qoʻshiqchilik va musiqaning rang-barangligi oʻzbek sanʼatining boyligidan dalolat beradi. Xorijiy mamlakatlarda oʻzbek milliy kuylari, qoʻshiq va raqslariga qiziqish kuchli.

Oʻzbek musiqa va qoʻshiqchilik sanʼatini rivojlantirishda Yunus Rajabiy, Toʻxtasin Jalilov, Gʻanijon Toshmatov, Mutal Burxonov, Sulaymon Yudakov, Avaz Mansurov, Dilorom Omonullayeva kabi kompozitorlarning xizmatlari katta.

Bugungi kunda shovqin-suron va baqir-chaqirlardan iborat sayoz kuy va qoʻshiqlar ham paydo boʻlmoqda. Ular insonga, ayniqsa, yoshlar maʼnaviyatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi, salomatlik uchun zararlidir. Mutaxassislar shunday musiqalarni tinglagan bolalarning xotirasi susayib, zehni asta-sekin pasayib borishini isbotlaganlar.

Koʻcha-koʻyda yoshlarning quloqchinlar orqali musiqa tinglab yurishlariga tez-tez koʻzimiz tushadi. Bunday odat yoqimsiz holat boʻlib, hushyorlikni kamaytiradi, asab kasalliklarini keltirib chiqaradi. Shuningdek, serqatnov koʻchalarda noxush vaziyatlarga, avtohalokatlarga sabab boʻladi.

Musiqa tanlash va uni tinglash odobi ham insonning madaniyatini belgilaydi.

## KUY SEHRI

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy musiqa ilmi rivojiga katta hissa qoʻshgan. Bir kuni



u Damashq amiri Sayfuddavlaning huzuriga keladi. Amir mutrib-u mashshoqlarni chaqirtiradi. Chorlangan mashshoqlar qaysi kuyni chalsa, Abu Nasr ularning xatosini aytib turardi. Buni ko'rib amir:

– Musiqa san'atidan ham xabaringiz bormi? – deb so'radi.

– Ha, – dedi Abu Nasr va to'rvasini ochib, undan bir necha cho'p oldi.

Cho'plarni bir-biriga ulab chala boshlagan edi, davrada o'tirganlar o'zlarini tutolmay kula boshlashdi. Keyin olim o'sha cho'plarni boshqacha qilib biriktirib chalgan edi, yig'ilganlar piq-piq yig'lashga tushishdi. Olim cho'plarni yana boshqacha tartibga solib chalgan edi, amirdan tortib darvozabongacha hamma dong qotib uxlab qoldi. Abu Nasr esa fursatdan foydalanib saroydan chiqib ketdi.

Rivoyatlarga ko'ra, qonun degan musiqa asbobini Abu Nasr Forobiy ixtiro qilgan ekan.



**Mutrib-u mashshoqlar** – cholg'uchi va sozandalar.

**Qonun (chang)** – Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan cholg'u asbobi.



1. Yaxshi qo'shiq va musiqa insonga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Siz qanday qo'shiqlarni sevib tinglaysiz?
3. «Kuy sehri» matnini diqqat bilan o'qing. Bit-ta asbob yordamida ijro etilgan kuylar nima uchun insonlarga har xil ta'sir ko'rsatdi?
4. Qo'shiq va musiqa tinglash odobi haqida mulohaza yuriting.

## KONSTITUTSIYAMIZ – BAXTIMIZ POYDEVORI

Konstitutsiya davlatning ijtimoiy va siyosiy tizimini, davlat organlarining tashkil etilishi va faoliyatini, fuqarolarning huquq va burchlarini belgilab beruvchi asosiy qonunidir. Bir soʻz bilan aytganda, konstitutsiya hayotimizni huquqiy jihatdan tartibga solib turadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan. U 6 boʻlim 26 bob 128 ta moddadan iborat.

Fuqarolar, shu jumladan, bolalarning huquq va erkinliklari Konstitutsiyamizning ikkinchi boʻlimida qayd etilgan.



**Konstitutsiya** – lotincha «konstitutio» – «tuzilish», «tartib» soʻzlaridan olingan boʻlib, «belgilayman», «tasdiqlayman» degan maʼnolarini bildiradi.

Konstitutsiyada bolalarning bilim olish huquqi ham kafolatlangan. 41-moddada: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy taʼlim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidir», – deyilgan.

Davlatimiz yosh avlodning chuqur bilim olishi uchun doimo gʻamxoʻrlik qiladi. Buni keyingi yillarda yangi qurilgan va taʼmirlangan zamonaviy maktablar misolida koʻrishimiz mumkin. Bugun biz taʼlim olayotgan maskanlar har jihatdan qulay, shinam va yorugʻ, barcha zarur oʻquv jihozlari va kompyuterlar bilan taʼminlangan.

Bizning Konstitutsiyamiz eng insonparvar va adolatparvar qonundir. Unda oʻz huquqini himoya qila ol-

maydigan kishilarning manfaatlari ham to'la kafolatlangan. 45-moddada: «Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir», – deb yozib qo'yilgan.

2008-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda ham bolalarning huquqlari to'la kafolatlangan.

## BAXT QOMUSI

### Qambar Ota

Vatanimni yashnatar  
Istiqlolning ziyosi.  
Xalqni baxtiyor etar  
Erk, adolat dunyosi.

Ozod mamlakatimda  
Konstitutsiyam – baxtim.  
Vatanga sodiq bo'lib  
O'sish yurakda ahdim.

Hammaning haq-huquqi  
Aniq bayon etilgan.  
Halol yashash yo'llari  
Qonun qilib bitilgan.

Doim himoyasida  
Inson faxr, nomusi.  
Yashasin mustaqillik  
Yaratgan baxt qomusi.



1. Konstitutsiya so'zi qanday ma'nolarni anglatadi?
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
3. Konstitutsiyada belgilangan qanday huquqlaringizdan foydalanmoqdasiz?
4. Bugun yurtimizda bolalarning baxtli yashashi, bilim olishi uchun yaratilgan sharoitlar haqida so'zlab bering.

## BIZNING HUQUQ VA BURCHLARIMIZ. QONUN-QOIDA, TARTIB TUSHUNCHALARI



Rasmlarda bolalar qanday huquqlaridan foydalanmoqdalar?

O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari qonun oldida tengdirlar. Har birimiz o'zimizga berilgan huquq va erkinliklardan foydalanayotganimizda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning manfaatlariga, huquq va erkinliklariga putur yetkazmasligimiz shart. Masalan, har bir fuqaro dam olish huquqiga ega. Hamma dam olayotgan vaqtda shovqin-suron solish, baland ovozda musiqa eshitish o'zgalarning dam olish huquqini buzish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari yashash, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, erkin fikrlash, so‘zlash va xohlagan diniga e‘tiqod qilish huquqiga ega. Har bir inson mehnat qilish, erkin kasb tanlash, dam olish huquqiga ega. Yurtimiz fuqarolarining malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bepul ta‘lim olish huquqi qonun yo‘li bilan belgilangan.



Har birimiz berilgan huquq va erkinliklardan foydalanish bilan birga, burch va majburiyatlarimizni ham bilib olishimiz kerak. Konstitutsiyaning 11-bobida fuqarolarning burchlari bayon etilgan. Unda har bir kishi boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklarini, qadr-qimmatini hurmat qilishga majburligi qayd etilgan.

Xalqimizning tarixiy, ma‘naviy va madaniy yodgorliklarini avaylab-asrash har bir O‘zbekiston fuqarosining burchidir. Shuningdek, atrof-muhitni ifloslantirmasligimiz, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishimiz lozim.

Ona-Vatanni himoya qilish, tinchligini ta‘minlashga hissa qo‘shish har birimizning sharaflari va burchimizdir.

Dunyoda hamma narsa tartib asosiga qurilgan. Masalan, katta ko‘chada ketayotgan avtoulovlar harakatini ko‘z oldingizga keltiring. Yo‘l ikkiga ajratilgan va ulovlarning o‘z yo‘nalishi bo‘yicha harakat qilishi qat‘iy

belgilab qo'yilgan. Agar avtoulovlar tartibsiz harakat qilsa, halokat sodir bo'ladi. Jamiyat ham xuddi shunday tartib-qoidalar asosida yashaydi, rivojlanadi. Qayerda tartib bo'lmasa, o'sha yerda buzilish, notinchlik bo'ladi. Shunday ekan, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turish uchun ham mustahkam qonun-qoidalar kerak. Shu jihatdan olib qarasaq, konstitutsiyani jamiyatni tartibga solib turuvchi qonun-qoidalar majmuyi deyish mumkin.

O'zbekiston fuqarolarining huquq va erkinliklari	O'zbekiston fuqarolarining burchlari
Mehnat qilish, erkin kasb tanlash	Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish
Dam olish	Boshqa kishilarni hurmat qilish
Fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi	Tarixiy, ma'naviy va madaniy meroslarni asrash
Bepul ta'lim olish	Atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish
Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish	Ona-Vatanni himoya qilish, harbiy xizmatni o'tash



1. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qanday huquq va erkinliklarga ega?
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining burchlari nimalardan iborat?
3. Tartib nima? Tartib-intizom bo'lmagan joyda qanday vaziyat yuzaga keladi?
4. Siz tabiatni va atrof-muhitni asrash uchun nima qilishim kerak, deb o'ylaysiz?



## BIZ O‘ZBEKISTON FUQAROLARIMIZ



Biz O‘zbekiston davlatining fuqarolarimiz. Fuqaro deganda muayyan davlat hududida muqim yashovchi insonlar tushuniladi. Har bir davlat o‘z fuqarolarini himoya qiladi, ularning erkin yashashi, bilim olishi va mehnat qilishi uchun sharoit yaratadi.

Davlat katta hududda hayotni to'g'ri tashkil qilish, tartibga solish hamda uni boshqarish tuzilmalaridir. Bu tuzilmalar umumiy nom bilan davlat hokimiyati deyiladi.

Yer yuzida davlatlar qadimdan mavjud. Har bir davlat o'zining boshqaruv tizimiga ega.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi **qonun chiqaruvchi hokimiyatni** amalga oshiradi. Qonunlar xalqning xohish-irodasini inobatga olib, deputatlar tomonidan ishlab chiqiladi. Ota-onalarimiz ertalab turib: «Saylovga borib kelamiz», – deganida aynan mana shu deputatlarni saylab keladilar. Deputatlar xalqning ishonchli vakillaridir.

Qabul qilingan qonun-qoidalarni hayotga joriy etish bilan **ijro hokimiyati** shug'ullanadi.

**Sud hokimiyati** qonun asosida odil sudlovni amalga oshiradi. Insonlarning haq-huquqlarini himoya qilish ham sud hokimiyatining vazifasidir.

Shunday qilib, davlat hokimiyati butun jamiyat hayotini tartibga soladi va nazorat qiladi. Davlatni boshqarish ishiga Prezident rahbarlik qiladi. Prezident davlat boshlig'idir.

O'zbekistonda davlatni boshqarish xalq manfaatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.



1. Davlat deganda nimani tushunasiz?
2. Davlatni boshqarishda kimning xohish-irodasi va manfaatlari inobatga olinadi?
3. Ota-onangizdan saylov nima ekanligi haqida so'rang. Saylovda kimlar ishtirok etishi mumkin ekan?

## MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

### ONAJONLAR BESHIK TEBRATSIN

Dunyoda chaqaloq uchun eng bexavotir va orombaxsh joy beshikdir. Shu bilan birga, beshik xalq amaliy san'atining go'zal namunasi hisoblanadi. Uni qo'li gul mohir duradgor-ustalar yasashadi.

Beshik mustahkam va salomatlik uchun foydali bo'lgan tol va tut daraxtlarining yog'ochidan yasaladi. Ustalar beshik yog'ochlariga turli naqshlar o'yishadi, turfa bo'yoq va ranglar bilan jilo berishadi. Bu bolaning ko'zlarini quvnatadi, tinchlantirib, go'zallikni his qilishga o'rgatadi.



Tol va tut daraxtlarining yog'ochi juda mustahkam bo'lgani uchun uni yo'nish, silliqdash, yupqa holga keltirish, naqsh o'yish oson ish emas. Mana shunday murakkab ishni mahorat bilan uddalaganlari uchun amaliy san'at ustalari mehnatiga tahsin o'qisak arziydi.

Ustalar qo'lidan chiqqan naqshinkor beshikni buvijon va onajonlarimiz yasatishadi. Beshik uchun ko'rpachalar, qo'lbog', yostiqcha va yopinchiqlar tikishadi.

Onajonlar beshik tebratib, farzandiga alla aytishadi. Allada ular farzandining unib-o'sishini, kelajakda yaxshi inson bo'lishini kuylab, eng ezgu niyatlarini ifodalaydilar.

Xalqimiz tomonidan oilada chaqaloq dunyoga kelishi munosabati bilan beshik to'yi nishonlanadi. Chaqaloqning buvisi nabiram sog'lom unib-o'ssin, deb chiroyli yasatilgan beshik olib keladi. Shu kuni barcha chaqaloq va uning ota-onasiga yaxshi tilaklar bildiradi, bola-jonlar quvna-b-o'ynaydi.



1. Xonadoningizda amaliy san'atning qaysi turiga oid buyumlar bor?
2. Alla bolaga qanday ta'sir qiladi?
3. Beshik to'yi marosimi haqida gapirib bering. Siz ham beshik to'yida ishtirok etganmisiz? Taassurotlaringizni o'rtoqlashing.
4. Konstitutsiyamizni o'rganish davomida qanday huquq va burchlaringizni bilib oldingiz?
5. O'zbekistonda davlat boshqaruvi qay tartibda amalga oshiriladi?
6. Maktabingizda o'tkazilgan qanday tadbirlarda ishtirok etdingiz? Tadbirning qaysi jihatlari sizga yoqdi?



## YURT TINCHLIGI UCHUN BARCHAMIZ MAS'ULMIZ



Quyidagi savolga javob bergan holda fikrni davom ettiring.

Nima uchun tinchlikni asrashimiz lozim? Chunki...

Tinchlik – bebaho ne'mat. Tinchlik bor joyda rivojlanish, o'sish bo'ladi. Bizning farovon hayotimiz, baxtli bolaligimiz, zamonaviy maktablarda ilm olishimiz, o'zimiz qiziqqan sport turlari bilan shug'ullanishimiz tinchlik tufaylidir.

O'zbek xalqi – tinchliksevar xalq. Chunki xalqimiz tinchlikning nechog'li qadri ekanini yaxshi biladi. Ota-bobolarimiz: «Yurting tinch – sen tinch», – deb bejiz aytishmagan.

Urush dahshatini, azob-uqubatlarini bobo va momolarimizdan eshitganmiz, kinofilmlarda ko'rganmiz. Ikkinchi

jahon urushi davrida navqiron yigitlar va ishga yaroqli erkaklar urushga ketgan. Dalalar, zavod-fabrikalardagi og'ir mehnat qariyalar, ayollar va bolalar zimmasiga tushgan. Urushda millionlab insonlar qurbon bo'lgan.

Bugungi kunda dunyoning ayrim mamlakatlarida bo'layotgan ko'ngilsiz voqealar har birimizni hushyorlikka undashi zarur. Notinch mamlakatlarda yashayotgan tengdoshlarimizning qorni nonga to'ymaydi, ust-boshi yupun, yashash uchun hatto boshpanasi ham yo'q. Ularning hayoti doimiy xavf ostida. Bolalar maktablarda bilim olish o'rniga qorin to'ydirish, jonini saqlab qolish uchun kurashmoqda. Bunday voqealar osoyishta hayotimizning qadriga yetishimiz kerakligini eslatib turadi.



O'z kindik qoni to'kilgan, ota-bobolari xoki yotgan ona yurtni dunyoda tengsiz, muqaddas Vatan deb biladigan odamning maqsad-muddaolari aniq, g'urur va iftixori yuksak bo'ladi.

Afsuski, bizning baxtli va farovon turmushimizni ko'rolmayotgan, uni buzishga urinayotgan yovuz niyatli kuchlar ham yo'q emas. Ular har xil yo'llar, aldovlar orqali ongimizni zaharlashga intiladilar. Bunday kimsalarning changaliga ko'proq bilimsiz, dunyoqarashi tor yoshlar tushib qoladi.

Biz uchun eng yaqin do'st – ota-onamiz, ustozlarimiz. Ulardan hech narsani yashirmasligimiz, har bir ishni ular bilan maslahatlashib qilishimiz lozim. Yomon niyatli kishilarning tuzog'iga tushib qolmaslik uchun esa yaxshi o'qishimiz, ustozlarimiz va ota-onamizning aytganlariga doimo rioya qilishimiz kerak.



## OQIL BOBO NASIHATLARI

O‘z Vatani sevmagan odam – yomon odam. Kim-da-kim o‘z ona-diyorining zamini-yu, oqar suvlarini, kimsasiz cho‘llari-yu, dala-dashtlarini qalbdan sevsa, u kam bo‘lmaydi. Zavol ko‘rmay, kamol topadi. Vatanga-do esa xalq qahr-g‘azabiga uchragan kishidir. Vaqti ke-lib unga hatto bir parcha yer ham, kafan ham buyur-maydi. Bir siqim ona yer tuprog‘i bir hovuch oltindan qimmat, deb bejiz aytishmagan.

\* \* \*

Donishmanddan so‘rashibdi:

– Siz uchun eng ulug‘ va mo‘tabar narsa nima?

– Vatan, – deb javob beribdi u.

– Nima uchun?

– Sababi, shu tuproq, shu zamin – men tug‘ilib o‘sgan, kindik qonim to‘kilgan joy. Shu yerning tuzini totib, suvini ichib, havosidan nafas olib, ulg‘aydim, kamol topdim. Shuning uchun u meni dunyoga keltirib, tarbiyalab katta qilgan onam kabi muqaddas.

Onani Vatanga, Vatanni onaga taqqoslanishining boisi ham ana shunda.



1. Mamlakatda notinchlik bo‘lsa, insonlarning turmushi qanday kechadi, deb o‘ylaysiz?
2. Ota-onangiz, bobo yoki buvingizdan tinchlik qadri haqidagi hayotiy voqealardan so‘zlab berishni iltimos qiling va mazmunini daftaringizga yozing.
3. Tinch-osoyishta hayotni asrash uchun nima qilishimiz kerak?
4. Nima uchun Vatan onaga qiyoslanadi?

## BIZNING ARMIYA



1. Vatanni kimlar qo'riqlaydi?
2. Vatan posboni – askar qanday bo'lishi kerak?

Har bir mamlakat xavfsizligini ta'minlash, tinchligini saqlash uchun o'z armiyasini shakllantiradi. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari 1992-yil 14-yanvarda tashkil topgan. Shuning uchun har yil 14-yanvarni «Vatan himoyachilari kuni» sifatida nishonlaymiz.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari Quruqlikdagi qo'shinlar, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, Harbiy havo kuchlari, Maxsus qo'shinlar, Chegara qo'shinlari va boshqa harbiy tuzilmalardan tashkil topgan. Bundan ko'rinib turibdiki, bizning armiyamiz mamlakatimizni har tomonlama ishonchli himoya qila oladi.

Mustaqillik yillarida armiyamiz har jihatdan takomillashtirildi. Armiya eng zamonaviy qurol-yarog'lar, harbiy texnika va asbob-uskunalar bilan ta'minlandi, askarlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Armiyada namunali xizmat qilgan askarlarga oliy o'quv yurtlariga qabul qilish chog'ida ma'lum imtiyozlar berilmoqda.

Harbiy san'at yurtimizda juda qadim zamonlardayoq rivojlangan. Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur kabi ajdodlarimiz qo'shin tuzish va uni boshqarish ishini, harbiy jang san'atini puxta egallagan edilar. Amir Temur qo'shin tuzib, navkar olishda yigitlarning kuch-quvvatiga, chapdastligi va jasurligiga, aql-zakovatiga e'tibor qaratgan.



Bag'rida o'stirib-ulg'aytirgan, yaxshi bilim olishimiz, sog'lom voyaga yetishimiz uchun qayg'urgan ona-Vatanga xizmat qilish biz – yoshlarning sharaflili burchimizdir. Buning uchun barchamiz astoydil bel bog'lashimiz lozim. Muntazam sport bilan shug'ullanib chiniqishimiz, fanlarni chuqur o'zlashtirishimiz, dunyoqarashimizni kengaytirishimiz, til o'rganishimiz shart. Ana shundagina biz chinakam yurt posboni bo'lamiz.

## VATAN POSBONI BO‘LAY

### Muqim Qodir

Ko'hna Xiva shahrida  
Xizmat qilmoqda akam.  
Kecha undan xat oldik,  
Yuboribdi surat ham.  
Askarlikning kiyimi  
Yarashibdi unga xo'p.  
Usti-boshi ozoda,  
Ko'kragida nishon ko'p.  
Chegarachi ekan u  
Sarhad qo'riqlar hushyor.  
Akam tinchlik posboni  
Uqtirdi opam Dildor.  
Suratiga boqib men  
Havas qildim akamga.  
Ulg'ayib, jasur posbon  
Bo'lay men ham Vatanga.



1. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari qachon tashkil topgan?
2. Harbiy san'atni chuqur egallagan ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?
3. Amir Temur lashkar tuzishda va navkar tanlashda nimalarga e'tibor qaratgan?
4. Katta bo'lganingizda armiya safida xizmat qilishni xohlaysizmi? Buning uchun hozirdan qanday tayyorgarlik ko'rish kerak?
5. Sizningcha, ona-Vatan himoyasiga kimlar mas'ul?

## SOG'LOM TURMUSH TARZI



Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.

**40-modda**



Buyuk hakim Ibn Sinoning uqtirishicha, insonning qancha umr ko'rishini uning o'ziga bog'liq. Sog'lom bo'lish uchun inson kundalik hayotda qator qoidalarga amal qilmog'i kerak. Ertalabki badantarbiya, sayr qilish, to'g'ri ovqatlanish, dam olish, sport bilan shug'ullanish, ozodalikka rioya qilish sog'lom bo'lish va uzoq umr ko'rishning asosiy shartlaridir.

Salomatlikni saqlashda to'g'ri ovqatlanish muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot ilmining ustozlaridan biri bo'lgan Gippokrat: «Bizning ovqatimiz – bizning dori-darmonimiz», – deb bekorga aytmagan.

Biz tanamiz uchun zarur bo'lgan kuch-quvvat va darmondorilarni ovqat orqali olamiz. Tarkibida yod moddasi kam mahsulotlarni muntazam iste'mol qilaversak, tez charchaydigan, serzarda, kamharakat bo'lib qolishimiz mumkin. Temir moddasiga boy oziq-ovqatlarni kam iste'mol qilish natijasida esa odam kamqon, kasallikka chalinuvchan, asabiy bo'lib qoladi.



Qadimda Sharq tabobatida kasalliklarni eng avvalo ovqat bilan davolashga harakat qilingan. Ovqatdan davo topilmagan holatlardagina dori-darmon va boshqa tibbiy muolajalar buyurilgan.

Odamning tanasi sog'lom bo'lsa, ruhi ham tetik bo'ladi. O'qishi a'lo, ishida unum bo'ladi. Keling, shu o'rinda Samad bilan Ravshanning kun tartibini ko'rib chiqaylik.

### **Samadning kun tartibi**

Samad o'ta injiq va qaysar bola. U har kuni yarim tungacha televizor tomosha qiladi. Ertalab esa barvaqt uyg'onishni istamaydi. Bazo'r o'rnidan turib, apil-tapil yuvinadi. Ba'zan nonushta qilishga ham ulgurmaydi, och-nahor maktabga jo'naydi. Darslarda esnab, lanj holatda o'tiradi. O'qituvchisining aytgan gaplari qulog'iga kirmaydi. Maktabdan kela solib ko'chaga chopadi. Samadning har kuni shu zayilda o'tadi. Shu bois uning rangi siniq, ishtahasi yo'q, fanlarni o'zlashtirish darajasi ham past.

### **Ravshanning kun tartibi**

Ravshan esa kun tartibiga qat'iy amal qiladi. U o'z vaqtida uxlaydi. Ertalab barvaqt turib, badantarbiya bilan shug'ullanadi. Tishlarini tozalab, yaxshilab yuvinadi. Onasi tayyorlagan nonushtani ishtaha bilan yeb, maktabga yo'l oladi. Darslarda hushyor turadi, o'qituvchisining savollariga javob beradi, topshiriqlarni bajaradi. Maktabdan kelib, onasiga yordamlashadi. Mahalladagi kurash sport to'garagiga borib, o'rtoqlari bilan birga mashq qiladi. O'z vaqtida ovqatlanib, darslarini tayyorlaydi.

Aziz o'quvchi, o'ylaymizki, Samad va Ravshanning kun tartibidan o'zingiz tegishli xulosa chiqarib olasiz.



## GASHT QILAMIZ – MASHQ QILAMIZ

### Po'lat Mo'min

Aka-uka bo'lishib jam,  
Kiyinvolib rosa ixcham,  
Biz har kuni turib tongda –  
Mashq qilamiz har ohangda.  
Sog'lomlikka intilamiz,  
Maza qilib mashq qilamiz.  
Har tomonga yuguramiz,  
Ko'p mashqlarga ulguramiz.  
O'zimizni erkin qo'yib,  
Nafas olib to'yib-to'yib.  
Sog'lomlikka intilamiz,  
Maza qilib mashq qilamiz.  
Goh o'ltirib, goho yotib,  
Har tomonga koptok otib,  
To'g'ri, biroz charchagaymiz,  
Terlagaymiz – chidagaymiz.  
Sog'lomlikka intilamiz,  
Maza qilib mashq qilamiz.



1. Sog'lom bo'lish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?
2. To'g'ri va tartibli ovqatlanishning inson salomatligidagi o'рни haqida gapiring.
3. Siz sog'lom turmush tarziga rioya qilyapman, deb o'ylaysizmi? Qaysi odatlaringiz sog'lig'ingiz uchun foydali-yu, qaysi biri zararli?
4. Kun tartibingiz haqida matn tuzing. Sog'lom bo'lish uchun yana nimalarga e'tibor qaratingiz kerakligi haqida mulohaza yuriting.

## ONALIK VA BOLALIK DAVLAT MUHOFAZASIDA



Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

**65-modda**



Har bir xalq farzandlarining jismonan sog'lom, ma'nan barkamol bo'lib voyaga yetishini istaydi.

O'zbekistonda bolaga hali u tug'ilmasidanoq g'amxo'rlik ko'rsatiladi. Har bir viloyat va tumanda tashkil etilgan maxsus tibbiy markazlarda ona va bola sog'ligi muntazam nazorat qilib boriladi.

Yosh avlod tarbiyasi va salomatligiga katta e'tibor qaratilayotganini mamlakatimizda yillarning quyidagicha nomlanganidan ham bilib olish mumkin:

1998-yil – «Oila yili»

2001-yil – «Ona va bola yili»

2008-yil – «Yoshlar yili»

2010-yil – «Barkamol avlod yili»

2012-yil – «Mustahkam oila yili»

2014-yil – «Sog'lom bola yili»

2016-yil – «Sogʻlom ona va bola yili»

Turli kasalliklarga qarshi emlash tadbirlari bolalar salomatligi uchun zarur. Tugʻilgan paytimizdan shu kunga qadar har birimizda bir necha marta emlash amaliyoti oʻtkazilgan. Bu kasal boʻlishimizning oldini olish uchun muhim.

Bundan tashqari, har bir oʻquvchi salomatligi maktab hamshiralari va oilaviy poliklinika shifokorlari nazoratiga olingan. Bolalarning sogʻlom oʻsishlari uchun maktablarda jismoniy tarbiya darslari joriy etilgan. Bolalarda oʻzlari xohlagan sport toʻgaragiga qatnashish imkoniyati bor.

Maktab oʻquvchilari oʻrtasida oʻtkaziladigan anʻanaviy «Umid nihollari» sport musobaqalari oʻgʻil-qizlarning jismonan sogʻlom, maʼnan yetuk boʻlib voyaga yetishlarida muhim ahamiyatga ega.



## **TAN SIHATLIK – TUMAN BOYLIK**

Oʻtgan zamonda bir qashshoq yigit donishmand cholning oldiga kelib:

– Ota, yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yoʻq. Juda qiynaldim, nima qilishimni bilmay qoldim. Endi qayerga borib dod desam ekan? – deb zorlanibdi.

Chol unga razm solib turibdi-da, debdi:

– Xoʻp, boʻlmasa, menga oʻng qoʻlingni sot, necha pul beray?

– Yoʻq, oʻng qoʻlim oʻzimga kerak, sotmayman, – deya javob qaytaribdi hayron boʻlgan yigit.

– Boʻlmasa oʻng koʻzingni sot.

– Nega endi ko‘zimni sotar ekanman? U hali men-  
ga kerak, – debdi yigit.

Chol shu tarzda yigitning tana a‘zolarini birma-bir  
sotgin deb aytib chiqibdi. Yigit esa yo‘q degan javobni  
qaytaraveribdi. Shunda chol yigitga:

– To‘rt muchang sog‘ bo‘la turib turmushdan nega  
zorlanasan? Tan sihatlik – tuman boylik-ku! Sog‘-sa-  
lomat bo‘lsang, qo‘lingdan har ishni bajarish keladi,  
kuning o‘tadi. Sen yaxshisi, dangasalikni yig‘ishtir-da,  
mehnat qil, – deb maslahat beribdi.

## SOG‘LIQ ISTASANG

### Obid Rasul

Sog‘liq istovchi har kim,  
Erinmay tongda har kun.  
Qilsa badantarbiya,  
Chaq-chaq xandon tarbiya.  
Tomirlarda chopib qon,

Yayrab ketar vujud – jon.  
O‘z vaqtida choy-taom,  
Shirin so‘z – shirin kalom.  
Halol mehnat, chaqqonlik  
Keltirar tuman boylik.



1. Sog‘lom avlod deganda nimani tushunasiz?
2. Yurtimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
3. Siz qaysi sport to‘garagiga qatnashasiz? Bu sport turi insonda qanday fazilatlarini shakllantiradi?
4. «Tan sihatlik – tuman boylik» hikoyasini o‘qing. Sizningcha, yigitning qashshoqligiga sabab nima? Sog‘lom, lekin dangasa odam o‘z maqsadlariga erisha oladimi?
5. O‘zingizga yoqqan sport turi bo‘yicha ma‘lumot to‘plang va daftaringizga yozing.

## HUNARNING YOMONI BO‘LMAYDI. HUNARLI – UNAR



1. Rasmlarda qaysi kasb-hunar egalari tasvirlangan?
2. Siz katta bo‘lganingizda kim bo‘lmoqchisiz?

Dunyoda kasb-hunarlar ko‘p. Hayotda har bir kasbning o‘ziga yarasha o‘rni, ahamiyati bor. Novvoy xalq dasturxonini to‘yimli va shifobaxsh nonlar bilan ta‘minlasa, shifokor bemorlarni davolaydi. Haydovchi odamlarning uzog‘ini yaqin qilsa, dehqon el dasturxoniga shirin-shakar qovun-tarvuzlar, don mahsulotlari va sabzavotlar yetkazib beradi. Chevar xushbichim kiyim-kechaklar tikadi, me‘mor yurt ko‘rkiga ko‘rk qo‘shuvchi mahobatli binolar quradi...

Ota-bobolarimiz «Hunarli – unar», «Hunarli kishi xor bo‘lmas», «Husniga emas, hunariga boq», «Bir yigitga qirq hunar oz» degan maqollarni bot-bot takrorlashgan. Boylikni bir soniyada yo‘qotish mumkin. Lekin bilim

va hunarni hech kim tortib ololmaydi. Inson eng qiyin vaziyatlarda ham o'z hunarini ishga solib, qiyinchiliklarni yengishi mumkin.

Tasavvur qiling, jamiyatdagi qaysidir kasb yoki hunar bo'lmasa, qanday vaziyat yuzaga kelishi mumkin? Agar haydovchi bo'lmasa, odamlar ishga, o'qishga o'z vaqtida yetib olishlari amrimahol. Farrosh vazifasini bajar-masa, ko'cha va jamoat joylarida sarishtalik bo'lmaydi.

Demak, hayot maromida borishi uchun har bir inson o'z kasbini sidqidildan bajarishi lozim.

“Har bir kishi kasb-korni mukammal egallamog'i, tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak”, – degan edi Abu Nasr Forobiy.

Kasb-hunarning yomoni bo'lmaydi. Muhimi, inson o'z ishini puxta egallashi va mehnati bilan el-yurtga, oilasi-ga naf keltirishidir.



Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir.

**«Temur tuzuklari»dan**

## HUNARNING FOYDASI

Aytishlaricha, Gushtosb degan podshoh kunlarning birida o'z vatanidan ayrilib, boshqa mamlakatga ke-lib qoldi. Uning yonida hech vaqosi yo'q edi. Yeyish-ga ovqat topolmay, och qoldi. Birovdan so'ray desa, izzat-nafsi yo'l qo'ymas edi. Uning yodiga yoshlik yil-lari tushdi. U bolalik paytida maktabga borar ekan, yo'l chetida joylashgan temirchi do'koni oldida biroz to'xtab, temirchilarning pichoq va bolta yasashlarini tomosha qilar edi. Shu asnoda u temirchilik sirlaridan oz-moz



voqif bo'lib qolgan edi. Gushtosb ko'p o'ylab o'tirmay, temirchilar oldiga bordi va ularga dedi:

– Ey birodarlar, men ham temirchilik sirlaridan xabardorman, meni o'zingizga sherik qilib olsangiz.

Temirchilar rozi bo'lishdi. Gushtosb bir necha muddat ishlab pul yig'di, so'ng vataniga qaytib bordi.

U martabaga erishgan paytida yosh-u keksani kasb-u hunar o'rganishga da'vat qildi. Bolalarni kunning birinchi yarmida o'qitib, ikkinchi qismida hunar o'rgatishga farmon berdi.

**«Mashriqzamin – hikmat bo'stoni» kitobidan**



## **Kasb-hunar va bilim haqida hadislar**

Odamlarning yaxshisi – odamlarga foydalirog'idir.

\* \* \*

Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir.

\* \* \*

Kasbning eng yaxshisi kishining o'z qo'li bilan bajaradigan ishi va halol savdodir.

\* \* \*

Sadaqaning afzali ilm o'rganib, so'ng uni boshqalarga ham o'rgatishdir.



1. Kasb-hunarlarning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mumkinmi?
2. Inson hayotda nimalarni yo'qotishi mumkin-u, nimalarni undan hech kim tortib ololmaydi?
3. Gushtosbning qiyin vaziyatdan chiqib ketishida unga nima yordamga keldi?
4. Siz qaysi hunarni egallashga qiziqasiz? Uni puxta egallash uchun nima qilishingiz lozim?

## KASBLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Qaysi bir odam halol kasb bilan mol-u dunyo topib, undan o'zining va Tangrining boshqa bandalarining oziq-ovqati, kiyim-kechaklari uchun sarf qilsa, shularning hammasi unga sadaqa hukmida yoziladi.

«Hadis»dan



Rasmlarda tasvirlangan kasblarning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirib bering.

Har bir kasbning o'ziga yarasha mashaqqati va fazilati bor. Qaysidir kasbni egallash uchun chuqur bilim, yana qaysidir kasbning ustasi bo'lish uchun esa tug'ma iste'dod yoki mahorat talab etiladi.

O'qituvchilik sharaflı kasblardan biri. Ustoz bo'lishni istagan inson, eng avvalo, bolalarni chin dildan sevi-

shi, kerak. O'qituvchi bolalarga ilm-fan sirlarini o'rgatadi, shu bilan birga, tarbiya ham beradi. Shuning uchun xalqimiz o'qituvchilarni e'zozlab, «Ustoz otangdek ulug'», – deydi.

Shifokor bo'lishni orzu qilgan kishi o'ta ziyrak, hushyor va bilimdon bo'lishi lozim. Chunki bemor hayoti shifokorning qo'lida. Shifokorning birgina xatosi tufayli inson bir umrga nogiron bo'lib qolishi yoki hayoti xavf ostida qolishi mumkin.



San'atkor, rassom, shoir va yozuvchilar doimo el nazarida bo'ladilar. Shuning uchun bu kasb egalari

tugʻma isteʼdod bilan bir qatorda yana koʻpgina fazilatlariga ham ega boʻlishlari kerak. Ular xalqimiz tarixi, madaniyatidan boxabar boʻlishlari shart. Mehnatsevarlik ijod odamlari uchun eng zarur fazilat. Boisi ijodning bir foizi tugʻma isteʼdod boʻlsa, toʻqson toʻqqiz foizi mehnatdir.

Xalqimiz tadbirkor insonlarni qadrlaydi. Chunki bunday kishilar xalq, Vatan uchun katta manfaat keltiradilar. Bugungi kunda yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Tadbirkorlar oʻz korxonalarida xalqimiz ehtiyoji va chet mamlakatlarga sotish uchun turli mahsulotlar ishlab chiqarmoqdalar.

Fermerlik ham olijanob kasblardan biri. Fermer na faqat dehqonchilik va chorvachilikdan, balki toʻgʻri ish yuritish, hisob-kitob hamda ilm-fanning eng yangi yutuqlaridan ham xabardor boʻlishi kerak. Shunda uning ishlari yanada rivoj topadi.

Inson qaysi kasbni tanlashidan qatʼi nazar, oʻz oldiga aniq maqsadlar qoʻyishi va uni amalga oshirish uchun tinmay intilishi lozim. Hayotda mashaqqatlarga chidagan va ularni yengib oʻtganlarga oʻz kasbining ustasi sifatida hurmat-eʼtiborga sazovor boʻladilar.



1. Oʻqituvchi qanday fazilatlariga ega boʻlishi lozim?
2. Nima uchun shifokordan oʻta ziyorlik va hushyorlik talab etiladi?
3. Sizing mahallangizda ham tadbirkor va fermerlar bormi? Ularning qilayotgan ishlari haqida soʻzlab bering.
4. Kelajakda kim boʻlmoqchisiz? Siz tanlagan kasb egasida qanday fazilatlar boʻlishi kerak?

## MEHNAT QILISH VA KASB TANLASH HUQUQI



Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanih huquqiga egadir.

**37-modda**



Mamlakatimizda har bir inson o'zi xohlagan kasbni tanlashi va shu kasb bo'yicha mehnat qilishi mumkin.

Mehnat insonni ulug'laydi, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadi. Halol mehnat qilgan kishi jismonan charchoqni his qilsa-da, ruhi tetik, kayfiyati chog' bo'ladi.

Hayotda to'g'ri kasb tanlash juda muhim. Chunki inson kasb egallash uchun bir necha yillik umrini sarf etadi. Odam o'zi yoqtirgan kasbni qiziqish bilan tez va oson o'zlashtiradi, keyinchalik mehnat faoliyati ham unumli bo'ladi.



Hayotda qoqilmay, jamiyatga ko'proq naf keltiray, degan odam yoshlikdan biron kasb yoki hunarni tanlab, uni mukammal egallashga harakat qilishi kerak. Bobomiz Alisher Navoiy:

Umrni zoye o'tkazma, mehnat qil,  
Mehnat – saodatning kaliti, bil,

deya bejiz aytmaganlar.

Yurtimizda yoshlarning o'zlari xohlagan kasb-hunarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Barcha qulayliklarga ega kasb-hunar kollejlari yigit-qizlar o'zlari yoqtirgan hunar sirlarini puxta egallamoqdalar.

Biz hozir ayni o'qib-o'rganadigan yoshdamiz. Hozirdanoq o'zimiz qiziqqan kasbni aniqlab olishimiz va uni egallash uchun tayyorgarlik ko'ra boshlashimiz shart. Kasb tanlashda ota-onamiz va ustozlarimizning fikrini, o'z qiziqish va imkoniyatlarimizni ham hisobga olishni unutmasligimiz darkor.



**Quyida berilgan kasb-hunar nomlarini zamonaviy va qadimiy kasb-hunar nomlari singari ikki guruhga ajrating.**

**Ushbu kasb-hunarlar hozirgi kunda ham mavjudmi?**

**Ulardan qaysilari yangicha nomlar bilan atalmoqda?**

**Kosib, muhandis, dasturchi, kulol, do'ppido'z, fermer, dehqon, misgar, kosmonavt, haydovchi, jurnalist, cho'pon, aktyor, oshpaz, menejer, xattot, novvoy, qozi, savdogar, chevar, tadbirkor, chopar, vazir, dizayner, tabib, arxitektor, karvonboshi, o'qituvchi, rassom, shifokor, uchuvchi.**





## HUNAR VA HUNAR EGALLASHNING FOYDASI HAQIDA MAQOLLAR

Ilmsizga ishonch yo‘q,  
Hunarsizga quvonch yo‘q.

Yuz hunarni chala bilgandan  
Bir hunarni to‘kis bil.

Qunt bilan o‘rgan hunar,  
Hunardan rizqing unar.

Hunar oshatar,  
Mehnat yashnatar.

Hunar bo‘lsa qo‘lingda,  
Non topilar yo‘lingda.

Hunari yo‘q kishining,  
Mazasi yo‘q ishining.



1. Mehnat qilish va kasb tanlash huquqi Konstitutsiyamizning nechanchi moddasida qayd etilgan?
2. Inson nima uchun mehnat qiladi?
3. Kasb tanlashda nimalarga e‘tibor berish kerak?
4. Universitet yoki kasb-hunar kollejlarida tahsil olayotgan aka-opalaringiz bormi? Ular bilan kasb tanlash mavzusida suhbatlashing.
5. Maqollarni o‘qib, ma‘nosini izohlang.

## KIM BO‘LSAM EKAN? (Amaliy mashg‘ulot)

### KASBLARNING RANGI QANAQA?

**Miraziz A‘zam**

Har kasbning o‘zgacha, farqli rangi bor.  
Mana, ko‘ring, novvoy – oppoq, xuddi qor.  
Sochlari oq uning, qosh, kiprigi oq,  
Ertalab qushlardan turar oldinroq.  
O‘tyoqarning rangi qora-quradir,  
Bo‘yoqchining rangi ola-buladir.  
Zavodga kiring-da, ishchiga qarang:  
Uning ish kiyimi ko‘kday havorang.  
Ishlovchining qo‘li moyli, sap-sariq.  
Tekinxo‘rning qo‘li rangsiz op-oriq.

### KULOL

**Obid Rasul**

Bordir kulol amakim,  
Nomlari usta Hakim.  
Loy pishitib erta-kech,  
Erinishni bilmas hech.  
O‘ymakorlarga taqlid,  
Har naqshida nozik did,  
Yangicha san‘at talab,  
Qo‘ndirib gul, silliqlab,  
Olov xumdon ichida,  
Yal-yal gulxan ichida,  
Oqizib ter, yuzda nur,

Ishlaydi dilda g‘urur.  
U yasagan gul tuvak,  
Sopol lagan, osh tovoq,  
Ko‘zasi chinnilardek,  
Oyna misol yarqirar.  
Bu – o‘tmish san‘at meros,  
Bobolarga bo‘lib xos.  
Unga berib naqsh sayqal,  
Etdi bugun mukammal.  
U yasagan har idish,  
Xizmatdadir yoz-u qish.

## CHEVAR

### Qambar Ota

Ko'ylakning etagiga  
Gul «ekar»,  
Ipak ipdan yoqasiga  
Gul tikar.  
Kashta chatar so'zana-yu  
Belqarsga.

Do'ppisidan mo'ralaydi  
Oy asta.  
Chevar qizning qoyil  
Kasbga mehriga,  
Yuraklar rom ignasining  
Sehriga.

## HUNARMAND

### Obid Rasul

Qo'lida cho'tka, moyi,  
Doim ochiq chiroyi,  
Bo'yoqchi Turg'un tog'am,  
Yetmish hunarda bekam.  
U bo'yagan rom, eshik,  
Tunukali tom, eshik,  
Devorga chekkan naqshi,  
Qanday charaqlar yaxshi.  
O'zlari xo'p o'qigan,  
Ertak, she'rlar to'qigan.  
Yana usta pazanda,  
Qo'shiqchi ham sozanda.  
Uning yopgan shirmoyi,  
To'lin oydek chiroyi.  
Bo'yoqchi Turg'un tog'am,  
Yetmish hunarda bekam.  
Tog'am kabi serhunar,  
Bo'lsang, hunardan unar.



Quyidagi rasmlarda qaysi kasb egalari tasvirlangan? Bu kasblar haqida nimalarni bilasiz?



## EZGU FAZILATLAR – INSON KO‘RKI



1. Sizning do‘stlaringiz ko‘pmi? Ular haqida so‘zlab bering.
2. Do‘stingiz xato qilsa, siz qanday yo‘l tutasiz?

Do‘stlikka vafodorlik insoniy fazilatlardan sanaladi. Haqiqiy do‘st har qanday vaziyatda o‘zini mardona tutadi. Inson yaxshi kunini do‘stlari davrasida o‘tkazsa, xursandchiligi ortadi. Boshiga tashvish tushganda esa do‘stining yordamiga tayanadi.

“Daraxt ildizi bilan, odam do‘stlari bilan”, degan maqol bejiz yaratilmagan. Daraxtning ildizi qanchalik baquvvat bo‘lsa, shamol va dovullarga bardoshli bo‘ladi. Insonning do‘stlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, hayoti shunchalik mazmunli o‘tadi. Do‘stlari yordamida hayot sinovlari va qiyinchiliklarini yengib o‘tadi.

Do‘stiga xiyonat qilgan odamga hurmat va ishonch yo‘qoladi. Do‘stlikka sadoqatli bo‘lish bizning insoniylik burchimizdir.

Umrimiz davomida juda ko‘p insonlardan yaxshilik ko‘ramiz. Ota-onamiz, yaqinlarimiz, ustozlarimiz bizga faqat yaxshilikni tilaydilar. Inson o‘ziga qilingan yaxshiliklarga albatta yaxshilik bilan javob qaytarishi kerak.

Ammo yomonlik qilganlarga qay tarzda javob qaytarish kerak? Yomonlikka yaxshilik bilan javob berish hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Agar sizga kimdir yomonlik qilsa, har qancha qiyin bo‘lsa-da, unga albatta yaxshilik bilan javob qaytaring. Shunda u qilgan ishidan pushaymon bo‘ladi, uyalganidan ikkinchi marotaba yomonlikka qo‘l urmaydi.



«Temur tuzuklari»da shunday soʻzlar bor: «Menga hasad qilib, oʻldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovgʻa-inʻomlar berib, muruvvat-u ehson koʻrsatdimki, bu yaxshiliklarni koʻrib, xijolat teriga gʻarq boʻldilar». Bundan koʻrinib turibdiki, bobomiz Amir Temur oʻziga dushmanlik qilgan kishilarga ham yaxshilik qilib, ularni toʻgʻri yoʻlga boshlaganlar. Allomalarning quyidagi soʻzlarini hamisha yodda tutishimiz darkor:

Dunyoda topayin desang omonlik,  
Birovga zarracha qilma yomonlik!

## YAXSHILIK

Raʼno buvisiga dedi:

– Buvijon, ustozim yaxshilik haqida matn tuzib kelishni topshirgan. Lekin men nima yozishni bilmayapman. Iltimos, yordam bering.

– Ustozing juda muhim topshiriq beribdi, qizalogʻim. Dunyo yaxshilik bilan fayzli. Hayotda odamlar bir-biriga faqat yaxshilik qilib yashashlari kerak. Yaxshilikka-yaxshilik, yomonlikka esa yomonlik qaytadi.





Senga bir hikoyatni aytib beraman. Oqko'ngil sher bir kuni sichqonni mushukning changalidan qutqarib yaxshilik qilibdi. Oradan bir necha kun o'tib, sher ovchining tuzog'iga tushib qolibdi. Sherning yaxshiligini unutmagan sichqon o'tkir tishlari bilan tuzoqni qirqib, uni ozod qilibdi. Ko'rdingmi, yaxshilik javobsiz qolmaydi.

– Buvijon, nega unda odamlar bir-birlariga yomonlik qiladilar?

– Birovga yomonlik qilish eng og'ir gunoh. Yomon odamlar qilgan yomonliklarining jazosini albatta tortadilar. Agar kimki bilib-bilmay gunoh ish qilib qo'ysa, uni yuvish uchun orqasidan biror savobli ish ham qilishi kerak. Savobli ish qilsa, odamning o'zi ham xursand bo'ladi. Shuni unutmaginki, yaxshilikning ham, yomonlikning ham katta-kichigi bo'lmaydi.

– Men kimga yaxshilik qilsam ekan-a? – dedi Ra'no buvisining so'zlaridan ta'sirlanib.

– Hozircha sening yaxshiliging odob-axloqingda, yaxshi o'qishingda, ota-onang, ustozlaring so'zlariga qu-loq solishingdadir. Hali hayoting oldinda, bolam. Ko'p yaxshiliklar qilishga ulgurasan, – dedi buvisi Ra'noning boshini silab.



1. Yaxshilik deganda nimani tushunasiz? Sizga ham birov yaxshilik qilganmi?
2. Nima uchun allomalar yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarish kerakligini uqtiradilar?
3. «Yaxshilik» hikoyasini o'qib, mazmuniga diqqat qiling. Ra'noning buvisi yaxshilikning foydasi, yomonlikning zarari haqida nimalar dedi?
4. Siz ushbu hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

## MA'NAVIYAT INSONNI ULUG'LAYDI

Insonning qanday ekanini uning so'zlariga, yurish-turishiga, qilayotgan ishiga qarab bilib olishimiz mumkin. Dunyoqarashi keng, ma'naviyati yuksak insonlar atrofdagilarga yaxshilik tilaydilar, el-yurt ravnaqi uchun xizmat qiladilar. Dunyoqarashi tor, ma'naviyati sayoz odamlar esa faqat o'zlarini o'ylaydilar.



Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.



Ma'naviyatni yuksaltirish uchun ko'p o'qib-o'rganishimiz, dunyoqarashimizni boyitishimiz kerak. Bunda bizga kitoblar yordamga keladi. Kitob – insonning eng yaqin do'sti, hamrohi. Afsuski, ayrim tengdoshlarimiz qimmatli vaqtini behuda ishlar bilan o'tkazmoqda. Ayni kelajakka poydevor qo'yadigan yoshda vaqtimizni foydali ishlarga sarflash, bilim olish, ko'p kitob o'qish eng to'g'ri yo'ldir.

Mamlakatimizda yoshlarga o'z iqtidori va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Shahar va qishloqlarimizda musiqa va

san'at maktablari, sport to'garaklari, bolalar ijodiyot markazlari faoliyat ko'rsatib turibdi.



Dunyoqarashni boyitishda til o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ona tilidan tashqari yana uch-to'rt tilni bilganga nima yetsin?

Ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy meros bilan ham tanishishimiz lozim. Chunki tariximizni qancha ko'p bilsak, kimlarning avlodlari ekanimizni anglab boramiz va ularga munosib bo'lishga intilamiz.

Shu bilan birga, dunyo xalqlari tarixi, madaniyati, urf-odatlaridan hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan ham boxabar bo'lishimiz kerak.

## **MING OLTINGA TENG HIKMAT**

Bir kuni padari buzrukvorimiz – Amir Tarag'ay bahodir ko'p qo'ylarni menga berib, Samarqand bozoriga savdoga yo'lladilar. Qo'ylarning hammasini ming oltin-ga sotib, pullarni belga bog'lab, sayr qilib yurar edim. Bir yerda xushovoz qalandar odamlarga so'zlab turgan ekan: qo'lida qog'oz – she'r bitilgan. U der edi:

– Shu yozuvning qadriga yetib, kim ming oltinga olsa, dunyoning oxiriga yetadi...

Himmatim jo'shib, ming oltinni qalandarga tutqazdim. U menga tikilib turdi-da, so'ng nasl-nasabimni so'radi. Aytdim. So'ng tayinladi:

– Bu xatni otang oldida o‘qi, borguncha ochma...

Qog‘ozni keltirib, otamga berdim. Ochib o‘qidilar. Forscha ruboiy ekan – ma‘nosi quyidagicha: «Zulm bilan dunyoda nom qoldirib bo‘lmaydi. Jamshid, Sulaymon, Iskandarlar o‘tib ketdi, navbat senga ham yetishi tayin. Dunyoga keldingmi, yaxshilik bilan nom qoldir...»

Ruboiyning muallifi – o‘sha qalandar-alloma shoir Kamol Xo‘jandiy ekan. U zotni otam ko‘p hurmat qilar ekanlar.

– Barakallo, o‘g‘lim, oltinlarni ko‘p dono ishga sarf etibsan. Endi ming oltinga olgan ushbu hikmatga qat‘iy rioya qilishing lozim...

Otamning aytganlarini bosh ustida tutdim.

### «Temur tuzuklari»dan



**Padari buzrukvor** – ota.

**Qalandar** – yurtma-yurt kezib, diniy bilimlarni targ‘ib qiluvchi inson.

**Ruboiy** – to‘rt qatordan iborat bo‘lgan ibratli she‘r.

**Jamshid, Iskandar** – kuch-qudratda tengsiz afsonaviy podshohlar.

**Sulaymon** – payg‘ambar va podshoh.




1. Insonning ma‘naviyati yuksak ekanini qanday bilib olish mumkin?
2. Dunyoqarashimizni kengaytirish uchun nimalar qilishimiz kerak?
3. Ma‘naviyatni yuksaltirishda kitobning o‘rni haqida gapiring.
4. Amir Temur ming oltinga sotib olgan she‘rda qanday so‘zlar bitilgan edi? Sizningcha, bu so‘zlar ming oltinga arziydimi?

## SEHRLI SO‘ZLAR

### SEHRLI SO‘ZLAR

**Dilshod Rajab**

Har bir gap-u so‘zimiz  
Go‘yo oyna ko‘zgumiz.  
Aytgan har so‘zimizda  
Ko‘rinamiz o‘zimiz.  
Qanday yaxshi so‘z-kalom,  
Odob boshi «Assalom».  
Xush yoqadi hamma vaqt  
«Rahmat», «xo‘p-xo‘p», «marhamat».  
So‘nggi so‘z ham alomat –  
«Xayr, bo‘ling salomat».



«Ko‘ngilda til nayzasining jarohati bitmas va bu jarohatga hech narsa malham bo‘lolmas. Qaysi ko‘ngilda til nayzasining jarohati bordir, unga faqat yaxshi so‘z va shirin til malham va rohatdir. Muloyim so‘z vahshiy-larni do‘stga aylantiradi, sehrgar ohang bilan afsun o‘qib, ilonni inidan chiqaradi». Bu hikmatli so‘zlarni Alisher Navoiy biz avlodlarga meros qoldirgan.

Darhaqiqat, tananing biron a‘zosiga shikast yet-sa, unga malham qo‘yamiz. Jarohat tuzalgach, esdan chiqaramiz. Kimdir dilimizni og‘ritsa, yomon gap bilan haqorat qilsa-chi? Bu insonning yodidan chiqishi qiyin.

Til insonning ham do‘sti, ham dushmanidir. Dush-manga muloyim so‘z aytib, do‘stga aylantirish, do‘st-ga achchiq so‘z aytib, bir lahzada dushmanga aylan-tirish mumkin. Behuda so‘z so‘zlovchining boshiga balo

bo'ladi. Shuning uchun har bir gapni avval o'ylab, keyin so'zlashimiz lozim.

Tildagi har bir so'zning o'ziga yarasha sehri, kuchi bor. Shunday so'zlar borki, insonga yaxshi ta'sir qiladi. «Assalomu alaykum», «marhamat», «kechiring», «iltimos», «rahmat», «xo'p bo'ladi», «labbay», «sog' bo'ling» kabi so'zlarni iloji boricha ko'proq qo'llagan ma'qul.

O'zbek xalq ertaklarini bir eslab ko'ring-a. Ertak qahramonlari tomonidan aytilgan birgina «Assalomu alaykum» so'zi ularning hayotini saqlab qoladi. Bu sehri so'z tufayli yalmog'iz kampirning tosh qalbi erib: «Agar saloming bo'lmaganda, ikki yamlab bir yu-tardim», – deydi. Latifalar qahramoni Nasriddin Afandini ham hammamiz yaxshi bilamiz. U har qanday qiyin vaziyatlardan hozirjavoblighi va zukkolighi bilan chiqib ketadi.

Muomala odobi insonning ko'rkidir. Oilada, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan suhbatda unga qat'iy amal qilmoq kerak. Qadimiy kitob – «Avesto»da inson hayoti davomida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu ishlarga tayanib yashashi kerakligi uqtiriladi.

Hayotda muvaffaqiyatlarga erishay desangiz, muomala odobiga rioya qiling.

## **TILINGNI AVAYLA – OMONDIR BOSHING**

O'quv va bilimning tarjimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar tilga e'tibor berilmasa, uni noo'rin qo'llasa, odam boshining yorilishi hech gap emas.



Til arslon misoli yotar qafasda,  
Bexabar boshini yer u nafasda...

So'zingni tiyib yur, boshing yormasin,  
Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin...

Hech qachon ko'p gapirma. Juda oz so'zla. Oz so'zga ko'proq ma'no sig'dirish payida bo'lgin. Chunki:

Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,  
Ortiq so'z bu boshni etadi egik.

Ortiqcha aytilgan so'z kishi ko'ngliga malol. Ammo so'zlamaslik ham mumkin emas. Bu holda soqov degan nomni orttirib olish mumkin. Shunga ko'ra o'rtacha yo'l tutish lozim.

Tilingni avayla – omondir boshing,  
So'zingni avayla – uzayar yoshing.

### «Qutadg'u bilig» asaridan



**Ro'shnolik** – yorug'lik, yaxshilik.

**Malik** – e'tiborli, obro'li; podshoh.



1. Til insonning ham do'sti, ham dushmanidir, degan fikrni izohlang.
2. Siz qanday sehri so'zlarni ko'p qo'llaysiz?
3. O'ylamasdan aytilgan so'z qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
4. O'rtoqlaringizning qaysi fazilatlaridan o'rnak olishingiz mumkin?

## MAKTAB – ENG ULUG‘ DARGOH



1. Nega maktabni bilim maskani deyishadi?
2. Siz maktabga nima maqsadda kelasiz?
3. Qaysi fanlar sizga ko‘proq yoqadi? Nima uchun?

Donishmandlar «Dunyoda eng muqaddas dargoh qayer?» degan savolga, «Maktab» deya javob berganlar. Xo‘sh, nima uchun maktab? Chunki bu yerda yurt kelajagi bo‘lgan yosh avlodga ta‘lim-tarbiya beriladi. Maktabda savod chiqaramiz, bilim egallaymiz, dunyoqarashimiz shakllanadi.

«Ilm o‘rganish har bir mo‘min uchun farzdir», «Beshikdan qabrgacha ilm izla», «Bir soat ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan afzaldir», deyiladi hadisi shariflarda.

Ajdodlarimiz ilm qadrini chuqur anglashgan, insonlarni ilm o'rganishga chorlab kelishgan.



Bilim olish igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli ish. Sabr va chidam, qunt bilan o'qigan odam albatta maqsadiga erishadi.

Maktab ostonasiga qadam qo'yganimizda ustozimiz bizni mehribonlik bilan qarshi oldi. Qo'limizdan tutib, bilimlar olamiga olib kirdi, o'qish-yozishni o'rgatdi.

Umrimizning to'qqiz yili jonajon maktabimiz quchog'ida o'tadi. Bu yillar davomida ilm olishimiz, o'qib-o'rganishimiz uchun fidoyi o'qituvchilarimiz jon koyitishadi.

Ikkinchi uyimiz bo'lgan maktab va undagi har bir jihoz – umumiy mulkimiz. Ularni ko'z qorachig'idek asrash, uka va singillarimizga bus-butun holatda qoldirish esa burchimizdir.

Har birimiz maktabda o'rnatilgan tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilishimiz kerak.

Zamonaviy, shinam maktablarda tahsil olayotganimiz Vatanimizning bizga ko'rsatayotgan g'amxo'rligidir. Biz

bunga javoban yaxshi o'qishimiz, namunali xulq-atvorga ega bo'lishimiz shart.

Hozircha bizning eng asosiy vazifamiz – o'qish. Yaxshi o'qib, kelajagimiz uchun poydevor qo'yishimiz darkor. Bugun olayotgan bilimlarimizni kelgusida oilamiz va yurtimiz ravnaqi uchun ishlatamiz. Yurtimiz ravnaq topsa, hayotimiz yanada farovon bo'ladi.

## Allomalar bilim va uning foydasi haqida

O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,  
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur.

**Yusuf Xos Hojib**

Oz-oz o'rganib dono bo'lur,  
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

**Alisher Navoiy**

Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas,  
Qo'lingdan kelgancha tera olsang bas.

**Abu Abdulloh Rudakiy**



1. Nima uchun maktab muqaddas dargoh deyiladi?
2. Maktab mulki deganda nimani tushunasiz?
3. Yaxshi o'qib, ertangi kunga poydevor qo'yish deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. O'zingiz tahsil olayotgan maktab haqida gapirib bering. Uning qaysi jihatlari sizga yoqadi?
5. «Mening jonajon maktabim» mavzusida ijodiy matn tuzing.

## AXLOQ-ODOB QOIDALARI (Amaliy mashg'ulot)



Har bir millatning asrlar davomida shakllangan axloq-odob qoidalari mavjud. Ularda shu millatning fe'l-atvori, tabiati, orzu-intilishlari, niyatlari o'z aksini topadi.

Sharq xalqlari qadimdan jamoa bo'lib yashashga odatlangan va atrofda gilarning fikrini hurmat qilgan. Ular «Bir bolaga yetti qo'shni – ota-ona» degan naqlga amal qilishgan. Bolaning axloq-odobiga faqat ota-onasi emas, balki butun mahalla ahli ham o'zini javobgar hisoblagan. Bola tarbiyasiga katta e'tibor qaratgan ota-bobolarimiz pand-nasihati ruhidagi asarlarni ko'p yozishgan.

Ota-ona va kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, xushmuomalalik, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik – o'zbek xalqining asosiy axloqiy mezonlaridir.

Husayn Voiz Koshifiy «Futuvvatnomayi Sultoniyy» nomli asarida yoshlar amal qilishi kerak boʻlgan suhbat odobining quyidagi sakkizta qoidasini sanab oʻtadi:

- soʻramagunlaricha gapirmaslik;
- gapirayotganda ovozini baland koʻtarmaslik;
- gapirayotganda oʻng-u soʻlga qaramaslik;
- gʻarazli va kinoyali gaplarni gapirmaslik;
- qattiq gapirmaslik va betgachoparlik qilmaslik;
- pushaymon boʻlmaslik uchun oʻylab gapirish;
- odamlar gapini boʻlmaslik;
- koʻp gapirmaslik. Chunki koʻp gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz boʻlsa ham, ammo soz gapirishni shior etish kerak...

«Agar yaxshi soʻz qaysi deb soʻrasalar, kishilarga nafi tegadigan soʻz, deb aytgil. Yomon soʻz qaysi, deb soʻrsalar, birovga zarari tegadigan soʻz, deb javob bergil», deya nasihat qiladi alloma.

## OʻGITLAR

Eshitib ota-onang  
Soʻzlarini qadrla.  
Mol-u mulking koʻpaysa,  
Magʻrurlanib quturma.

\* \* \*

Boqmas jahon sovuq soʻz,  
Nodon, yuzsiz, baxilga.  
Yoqimli boʻl, xushxulq boʻl,  
Qolsin noming koʻp yilga.

\* \* \*

Undab ulugʻ chaqirsa,  
Tezlik bilan chopib kel.

Ochlikda birga boʻlgil,  
Ne holda boʻlsa yurt, el.

\* \* \*

Keng toʻn toʻzimas,  
Kengashlik ish buzilmas.

\* \* \*

Botir – jangda,  
dono majlisda sinaladi.

\* \* \*

Odobning boshi til.

«Devonu lugʻotit-turk» asaridan



## AXLOQ

Suv, Olov va Axloq – uchovi do‘st tutinishibdi. Bir kuni ular sayrga chiqishibdi. Bir-birlaridan xavotir olib, Suvdan so‘rashibdi:

– Agar yo‘qolib qolsang, seni qayerdan topamiz?

– Qayerda sharillash ovozini eshitsangiz, men o‘sha yerda bo‘laman, – debdi Suv.

So‘ngra Olovdan so‘rashibdi:

– Seni yo‘qotib qo‘ysak, qayerdan topamiz?

– Qayerda tutun ko‘rsangiz, men o‘sha joyda bo‘laman, – debdi Olov.

Navbat Axloqqa kelganda u shunday javob beribdi:

– Meni yo‘qotsangiz, izlab yurmang. Hech qayerdan topa olmaysiz.

**«Sirli, ibratli va hayotiy hikoyalar» kitobidan**



1. Nima uchun Sharq xalqlari, shu jumladan, otabobolarimiz axloq-odobga katta e‘tibor qaratishgan?
2. «Odobni odobsizdan o‘rgan» maqolini qanday izohlaysiz?
3. Yaxshi inson qanday fazilatlarga ega bo‘ladi?
4. Husayn Voiz Koshifiy suhbat odobida nimalarga rioya qilish kerakligini uqtirgan?
5. Axloqning «Meni yo‘qotsangiz, izlab yurmang. Hech qayerdan topa olmaysiz», degan so‘zlaridan qanday xulosa chiqarish mumkin?
6. Daftaringizga xulqingizdagi yaxshi va yo‘qotishim shart, deb o‘ylagan odatlaringizni yozing.

## UMUMLASHTIRUVCHI DARS

### BILIMNING KUCHI

Hind xalqining noyob yozma yodgorligi – «Maxobxorat» dostonida ibratli bir hikoya bor. Unda Yudxishtxira o‘z ukalarini o‘limdan saqlab qolish uchun o‘rmon devining savollariga javob berishiga to‘g‘ri keladi.

...Yudxishtxira ovoz kelgan tomonga yurdi va to‘satdan daraxtlarning quyuc barglari orasida turgan o‘rmon deviga ko‘zi tushdi. Uning bo‘yi palmaday kelar, tanasi olovday yonib, nur taratib turar, ko‘zlari dum-dumaloq, kiprik qoqmas edi. U kuchli shalolaning shovqinini eslatuvchi guldiragan ovoz bilan so‘radi:

– Sen javob berasanmi? Yoki shu yerda manguga qolmoqchimisan?

– So‘rayver, – dedi Yudxishtxira.

O‘rmon devi savol berishga ulgurmasidanoq tayyor javoblarni ola boshladi.

- Qanday qilib aqlli bo‘lish mumkin?
- Donolar bilan suhbatda.
- Jangchi uchun eng qimmatli narsa nima?
- Qurol.
- Yer haydovchi uchun eng zarur narsa nima?
- Yomg‘ir.
- Urug‘ sepuvchiga-chi?
- Urug‘.
- Nima osmondan ham yuqori?
- Ota.
- Nima shamoldan ham tez chopadi?
- Fikr.

- Nima ko‘zini yummasdan uxlaydi?
  - Baliq.
  - Nima tug‘ilgandan keyin qimirlamaydi?
  - Tuxum.
  - Sovuqdan kishini nima saqlaydi?
  - Olov.
  - Otaning jon-u dili kim bo‘lishi mumkin?
  - Farzand.
  - Eng yaxshi boylik nima?
  - Bilim.
  - Qanaqa kasal davosiz?
  - Ochko‘zlik.
  - Ey, odamzodning eng donosi, sen mening ham-  
ma savollarimga to‘g‘ri javob berding.
- Shu so‘zlarni aytib o‘rmon devi ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.



## OTAGA EHTIROM

**Atoqli o‘zbek adibi Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» asari buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur haqida. Boburning qizi Gulbadanbegim ham mashhur shoira va tarixchi sifatida tanilgan. «Yulduzli tunlar» romanidan olingan quyidagi parchada 5 yoshli Gulbadanbegimning ota-onasiga hurmat-ehtiromi juda nozik ifodalangan.**

...Bobur qizchasini qo‘lida ko‘tarib olib, peshonasidan o‘pdi, so‘ng dasturxon oldiga kelib, uni tizzasiga olib o‘tirdi...

– Ne yeysan, – deb so‘radi.

Gulbadan odob bilan bosh chayqadi – u podshoh otasining oldida ovqat chaynab o‘tirishdan iymanar edi. Lekin dadasining zar qo‘shib to‘qilgan qimmatbaho abosidagi tugmalar uni juda qiziqtirib qo‘ydi...

– Senga tugmalar ma’qulmi? – deb so’radi dadasi. Gulbadan «ha», deb jilmaydi...

Bobur kamariga osilgan qindan kichkina qalamtarosh oldi-yu, o’sha tugmani ipidan qirqib olib, qizchasiga berdi:

– Lekin yo’qotma. Bu qush – Humo. Ilohim, senga baxt keltirsin.

Gulbadan quvonib va hayajonlanib:

– Rahmat, hazrati... oli... – dedi-yu, lekin jumlaning oxirini uncha kelishtirilmadi.

– Meni ota deyaqol, qizim.

Gulbadan onasi Mohimbegimga savol nazari bilan qaradi. Mohim «ha, ayt» degandek bosh irg’adi. Shunda Gulbadan qo’lchalari bilan otasining bo’ynidan quchdi-da:

– Otajon! – deb uning yonog’idan o’pdi.



**Abo** – erkaklarnig qadimiy ustki kiyimi



1. Bilim inson hayotida qanday ahamiyatga ega?
2. Insonning muomalasidan uning qandayligini bilib olish mumkinmi?
3. «Otaga ehtirom» matnini diqqat bilan o’qing. Gulbadanbegimning odobi uning qaysi xatti-harakatlarida namoyon bo’ladi?
4. Yozgi ta’til chog’ida axloq-odobga doir kitoblarni o’qing. Ulardan o’zingizga yoqqan hikoya, ertak va rivoyatlarning mazmunini daf-taringizga yozing.
5. Vatan, tinchlik va do’stlik haqidagi she’rlardan yod oling.
6. Hunar va uning foydalari, mehnatsevarlik haqidagi maqollardan to’plang.

## MUNDARIJA

### I BOB. O‘ZBEKISTON – MADANIY VA MA’NAVIY MEROSLARGA BOY O‘LKA

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat.....	4
Yurt tinchligi – el boyligi.....	7
O‘zbekiston – ko‘p millatli mamlakat.....	10
Ajdodlarimiz ardoqlagan qadriyatlar.....	14
O‘zbekiston – madaniy va ma’naviy meroslarga boy o‘lka.....	17
Davlat tili.....	20
Mustaqillik yillarida tiklangan tarixiy obidalar, yodgorliklar.....	23
<i>Takrorlash</i> .....	27
Milliy merosimiz – faxrimiz.....	29
Yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari. Oilaviy an’analar.....	33
Musiqaning inson hayotidagi o‘rni.....	36
Mamlakatimiz hududlaridagi qo‘shiqchilik san’atining o‘ziga xosligi.....	39
Konstitutsiyamiz – baxtimiz poydevori.....	42
Bizning huquq va burchlarimiz.	
Qonun-qoida, tartib tushunchalari.....	44
Biz O‘zbekiston fuqorolarimiz.....	47
<i>Mustaqil o‘qish uchun</i> .....	49

## II BOB. QUDRATLI YURTNING SOG‘LOM FARZANDLARI

Yurt tinchligi uchun barchamiz mas‘ulmiz.....	51
Bizning armiya.....	54
Sog‘lom turmush tarzi.....	57
Onalik va bolalik davlat muhofazasida.....	60
Hunarning yomoni bo‘lmaydi. Hunarli – unar.....	63
Kasblarning o‘ziga xos xususiyatlari.....	66
Mehnat qilish va kasb tanlash huquqi.....	69
Kim bo‘lsam ekan? ( <i>Amaliy mashg‘ulot</i> ).....	72

## III BOB. EZGULIK – KOMILLIKKA YETAKLAYDI

Ezgu fazilatlar – inson ko‘rki.....	75
Ma’naviyat insonni ulug‘laydi.....	78
Sehri so‘zlar.....	81
Maktab – eng ulug‘ dargoh.....	84
Axloq-odob qoidalari ( <i>Amaliy mashg‘ulot</i> ).....	87
<i>Umumlashtiruvchi dars</i> .....	90



**MOHIRA XOLIQOVA, SHAHNOZA ERGASHEVA**

*O'quv nashri*

**«ODOBNOMA»**

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik

*(O'zbek tilida)*

*Tuzatilgan va to'ldirilgan to'rtinchi nashr*

Toshkent – «Yangiyo'l poligraf servis» – 2017

Nashriyot litsenziyasi AI №185, 10.05.2011 y.

Muharrir – J. Azimov  
Texnik muharrir – M. Riksiyev  
Musahhah – A. Toshpo'latov

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 01.06.2017.  
Bichimi 70x90 1/16. «Arial» garniturasida. Ofset qog'ozida.

Ofset bosma usulda bosildi.

Bosma tabog'i 6,0. Sh. b. t. 7,02.

Nusxasi 469363.

Buyurtma № 4740.

«Sharq» NMAK bosmaxonasida chop etildi.  
100000, Toshkent sh., Buyuk Turon ko'chasi, 41.

## Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.